

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“UMUMIY PEDAGOGIKA” KAFEDRASI

**“Boshlang'ich sinf o'quvchilarida “odobnoma” darslari orqali
milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish” mavzusidagi**


BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: “Boshlang'ich ta'lim va sport
tarbiyaviy ish” ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi
4 kurs talabasi **O'roqova G.**

ILMIY RAHBAR:
o'qituvchi Shoyqulova N.

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

_____sonli bayonnomasi “_____” _____2013 yil



**MAVZU: BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA "ODOBNOMA"
DARSLARI ORQALI MILLIY G'URUR TUYG'USINI
SHAKLLANTIRISH**

REJA:

KIRISH.

I. BOB O'QUVCHILARDA MILLIY G'URUR TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI.

- I.1. Milliy g'urur tushunchasining mazmun va mohiyati.
- I.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Odobnoma" darslari orqali milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish imkoniyatlari.

II. BOB BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA "ODOBNOMA" DARSLARI ORQALI MILLIY G'URUR TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH USULLARI.

- II.1. "Odobnoma" fani orqali o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish usullari.
- II.2. 3-sinf o'quvchilarida "Odobnoma" darslari orqali milliy g'ururni shakllantirish vositalari.

UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti barcha davlatlarda rivojlanishning mohiyati uning sur'ati, insonlarning odobi, tarbiyasi xulqi va ma'naviy- madaniy ahloqiy kamolat yuksak bo'lib, ma'rifiy, tarbiyaviy tadbirlar oqilona yo'lga qo'yilgan bo'lsa, shu yerda jamiyatning ijtimoiy adolat mezonlari tez rivojlanganligi tarixdan ma'lum.

Yuksak odob-axloq me'yorlari kecha yoki bugun o'ylab topilgan narsa emas.

Ular insoniyatning ming yillik tarixi, ota- bobolarimizning necha- necha ajdod- avlodlari tajribasi davomida shakllangan. Odob , axloq, g'urur, or- nomus va uyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan yoshlarga singdirilib kelingan.

Mustaqil Respublikamiz bugungi kunda yoshlarimizni har tomonlama ma'naviy- ma'rifiy jihatdan o'zini tuta bilgan o'z shani, uyati, g'ururini himoya qila oladigan darajada ko'rishni istaydi.

Ma'lumki, kuchli, qudratli davlat ma'naviyat zaminida vujudga keladi. Bunday qudratli davlatning kishilari ham o'z g'ururi, or- nomusi va qadriyatlarini himoya qilishga qodir insonlar bo'lishi lozim. Shunday ekan biz tarbiya jarayonida inson sha'ni g'ururi, or- nomusi va uni asrash, himoya qilishni yoshlarga o'rgatishimiz hamda oldimizga asosiy maqsad qilib qo'yishimiz kerak. Bugungi yoshlarimiz o'z taqdirining chinakkam egasi, o'z tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy qadryatlarning sohibi sifatida, odob- axloqimiz namunasi asosida ish tutadilar.

Shu bois xalqimiz o'zligini anglab, mustaqillik poydevorini tobora mustahkamlab bormoqda. O'z navbatida ma'naviy- axloqiy yuksalish, bilan birga bir qancha o'z yechimini kutib turgan muammolar mavjud. Har – bir davlatning istiqboli, xalqning farovonligi osoyishta bo'lishini yosh avlod, umidli o'g'il-qizlariga bog'liq, chunki ertangi kun ularning qo'lida. Shuning uchun ham Prezident I. A. Karimov O'zbekiston kelajagi buyuk davlat deganlarida, avvalombor e'tiborni yoshlarga qaratib, farzandlarimiz bizlardan ko'ra, baxtli,

kuchli, aql- zakovatli or- nomusli va g'ururli bo'lishini qayta- qayta ta'kidlab o'tadilar.

Bugungi yoshlarimizga Yevropa madaniyatiga taqlid qilish odatlari kam bo'lsada uchrab turadi. Bunday hollarni bartaraf etish uchun har- bir yosh avlod o'z eliga, xalqiga, yurtiga nisbatan kuchli g'urur, or- nomusli qilib shakllantirishi maqsadga muvofiq. Bu borada yoshlarimiz ko'proq g'urur, or- nomus, uyat, his- tuyg'u haqida o'zlariga kerakli o'gitlarni o'rganish lozim.

Shu bois xalqimiz o'zligini anglab, mustaqillik poydevorini tobora mustahkamlab bormoqda. O'z navbatida ma'naviy-axloqiy yuksalish bilan birga bir qancha o'z echimini kutib turgan muammolar mavjud. Har bir davlatning istiqboli, xalqining farovonligi, osoyishta bo'lishi yosh avlod, umidli o'g'il- qizlariga bog'liq, chunki ertangi kun ularning qo'lida. Shuninguchun ham Prezident I.A.Karimov O'zbekiston kelajagi buyuk davlat deganlarida, avvalambor, e'tiborni yoshlarga qaratib, farzandlarimiz bizlardan ko'ra, baxtli, kuchli, aql-zakovatli, or-nomusli va g'ururli bo'lishini qayta-qayta ta'kidlab o'tadilar.

Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, mamlakat fuqaro-larining milliy g'ururi qancha baland bo'lsa, ularni jamiyat taraqqiyotiga qushadigan xissasi shuncha ko'p bo'ladi. Milliy g'urur deganda, o'z millatining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini chuqur anglab yetish, ona tili, dini, tarixi, madaniyati, adabiyoti va san'ati, urf- odatlari, rasm-rusumlari, bayramu, sayillaridan fahrlanish tushuniladi. Milliy g'urur millatning vujudga kelishi, shakllanishi bilan paydo bo'ladi va rivojlana boradi. Millatning vujudga kelishi va rivojlanishi bevosita Vatan ravnaqiga bog'liq bulganligi uchun milliy g'urur taraqqiyoti va yuksalishi ham Vatan taraqqiyotiga bog'liqdir. shuning uchun ham milliy g'urur-Vatanga bo'lgan sadoqat, mehr- muhabbat, bir so'z bilan aytganda vatanparvarlikda yaqqol namoyon bo'ladi. Lekin o'zoq yillar davomida o'z qadriyatlarimizni eslash ham tadqiq etilgan, xalq milliy g'ururdan mahrum bo'la boshlagan edi. O'sha davrlarda milliylik so'zini aytisbiing o'zi og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin edi. Bir so'z bilan aytganda milliy gururimiz uzoq zamonlar toptaldi. Mamlakatimiznmg mustaqil bo'lishi, o'z

davlatchiligimizning qaror topshi bilan xalqimizning milliy xis-tuygʻulari uygʻonib, milliy gʻuruming nafaqat tiklanishi, balki uningyanada yuksalishi uchun ham mifstahkam zamin yaraldi. Milliy gʻururdek tabarrukxis qalbiga jo boʻlgan inson oʻzligining butun talantini, isteʼdodini, kuch-qudratini shu xalqqa, millatga, shu yurtga safarbar etishga doim tayyor turadi. Yaʼni, bunday oliyjanoblik milliy gʻurumi baland insonda oddiy madaniyat koʻnikmasi boʻlib hisoblanadi. Milliy gʻurur har bir insonda madaniy saviya darajasini mujassam boʻlsa, mana shunday saviyadagi farzandlari koʻp boʻlgan mamlakat, yurt doim gʻolib, yengilmas va obod boʻladi. Milliy gʻurur, avvalo milliy gʻoyaga tayanadi. Milliy gʻoya esa milliy meʼrosdan qudrat oladi. Milliy meros oʻsha millatning oʻzoq oʻtmish davrlar davomida toʻplangan aql-zakovat mevalari xazinasidir.

Mana shu xazinadagi javohirlarsiz millat qiyofasini tasavvur qilish qiyin. Agar milliy merosni yuzaki oʻrganar ekan, shu millatga mansub kishida madaniy saviya shakllanmaydi. U oʻz millati haqida gapirganda yoki oshirib yuborishi y o boʻlmasa munosib baho berolmasligi mumkin. Har bir insonda bilim asosidagi madaniy saviya shakllanmas ekan, u maqtanchoqlikka, manmanlikka yoʻl quyish mumkin. Milliy gʻurur tuygʻusi-milliy takabburlik, milliy manmansirash, milliy kekkayishga tamoman qarama-qarshidir. Milliy gʻuruming aksi hisoblangan bunday gʻayriinsoniy qiliqlar birlashib, milliy qalandimogʻlikni vujudga keltiradi. Milliy kalandimogʻlik koʻpmillatli mamlakat sharoitida millatning bir-biriga yaqinlashtirmaydi, balki ular orasiga adovat oʻrigʻini sochadi, birini ikkinchisiga dushman qilib qoʻydi, turli nizolar kelib chiqishiga sabab boʻladi. Umuman, milliy gʻurur har bir fuqaroning madaniy saviyasini, komilligini ifodalaydigan eng yuksak oʻlchovdir. Milliy gʻurur baland inson millat, xalq, davlat, jamiyat manfaatini oʻz manfaatidan hamisha ustun quyadi.

Bugungi yoshlarimizda Evropa madaniyatiga taqlid qilish odatlari kam boʻlsa-da, uchrab turadi. Bunday hollarni bartaraf etish uchun har bir yosh avlod oʻz eliga, xalqiga, yurtiga nisbatan kuchli gʻurur, or-nomusni shakllantirishi maqsadga muvofiq. Bu borada yoshlarimiz koʻproq gʻurur, or-nomus, uyat, his-tuygʻu haqida oʻzlariga kerakli oʻgʻitlarni mazkur qoʻllanmadan olishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Odobnoma" darslari orqali milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish usullarini nazariy jihatdan asoslash.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Odobnoma" darslari orqali milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishni nazariy jihatdan asoslash:

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Odobnoma" darslari orqali milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Odobnoma" darslari orqali milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Odobnoma" darslari orqali milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishning mazmuni, shakl va uslublari.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy farazi: Agar:

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Odobnoma" darslari orqali milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari aniqlansa;

- Boshlang'ich sinflarda "Odobnoma" darslarni tashkil etishda tajribalar, tarixiy merosimiz hamda milliy qadriyatlarimizdan samarali foydalanilsa;

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Odobnoma" darslari orqali milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish usullari ishlab chiqilsa;

- O'tkazilgan tajriba- sinov va izlanishlarga tayanib, ilmiy xulosalarni amalda qo'llash uchun tavsiyalar yaratilsa, samarali amalgam oshadi.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risi" dagi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, Prezident I. A. Karimovning ma'naviyat, ta'lim, tarbiyaga oid g'oyalari, mutafakkirlarimiz merosidagi milliy g'urur, vatanparvarlik haqidagi ta'limotlar tashkil etdi.

I. BOB O'QUVCHILARDA MILLIY G'URUR TUYG'USINI SHAKL- LANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI.

I.1. Milliy g'urur tushunchasining mazmun va mohiyati.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikdan keyin hukumatning barcha ichki va tashqi siyosati, islohatlarning birinchi bosqichida olib borgan olamshumil siyosati va ikkinchi bosqichda amalga oshirayotgan tarixiy- umumbashariy ishlari tufayli butun dunyoga tanildi va tan olindi. Bu o'zbek xalqining milliy g'ururidir.

Ijtimoiy hayotimizni isloh qilish va yangilash boshlanib ketganligi bois ma'naviy madaniyatning qudratli qatlamlari ochildi. Ular xalq ruhiyatini vatanparvarlik, milliy iftixor, butun dunyo uchun bag'rikenglik tomon keskin o'zgartirib yubordi¹.

Milliy g'urur haqida fikr yuritar ekanmiz, avvalo g'urur nima? so'ngra milliy g'urur mazmuni qanday? degan savollarga to'xtalish zarur. Chunki, milliy g'ururni tarkib toptirish va tarbiyalash kabi pedagogik – psixologik muammoni hal qilish zikr qilingan so'z va so'z birikmalari ma'nosi bilan bevosita bog'liqdir.

G'urur so'zi faxr, iftihor, faxrlanish, mag'rur, quvonch, quvonish kabi ma'nolarni anglatadi. Mumtoz she'riyat va nasrlarda, faxriya, ballada va dostonlarda, xalq og'zaki ijodida ham yuqoridagi so'zlar ma'nodosh (sinonim) ma'no - mazmunda foydalanilgan.

Milliy g'urur muayyan millatning tarixiy o'tmishidan, milliy qadriyatlaridan, jahon miqyosida asrlar osha tan olinib kelinayotgan fan, din, adabiyot, san'at va madaniyat yutuqlari va ularni yaratgan daholardan, tarixiy obida va yodgorliklaridan, milliy urf-odatlar-yu, an'analaridan, ona-vatanidan, dono xalqidan, Vatanining go'zal o'tmishi va bugunidan, milliy xalq qahramonlaridan faxrlanish va iftixor qilish tuyg'usidir.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T: "O'zbekiston" 1997. 326 bet.

G'urur o'zini o'zi anglash, milliy g'urur esa milliy o'z-o'zini anglash bilan bevosita bog'liqdir. Tilini, dinini, tarixini, ajodlarining mazmunli hayotini, olamshumul kashfiyotlarini yaxshi bilgan, o'rgangan kishigina, o'zining kimligini anglash mumkin va uning qalbida, vujudida va ruhida faxrlanish tuyg'usi vujudga keladi. Shuningdek, unda ajdodlariga sodiq qolib, o'zini kamol toptirishga bo'lgan intilish insonning g'ururini, uning haqiqiy fazilatlarini yuksaltiradi. Milliy ong uyg'onish va shakllanish o'zlikni anglashdan boshlanadi. O'zlikni anglash milliy g'ururni uyg'otadi. Milliy g'urur "Men o'zbekman" deb ko'krakka urish emas, balki o'z qadriyatlari, tarixi, tili, an'analari, buyuk siymolari bilan faxrlana olish hissidir. Bu his insonning o'ziga ham ma'suliyat yuklaydi. O'z millatiga munosib inson bo'lishiga undaydi. Biroq o'zlikni anglash va milliy g'ururni bu tarixni bilish, madaniy merosini saqlash, til sofliqi, milliy qadryatni tiklash bilangina kifoyalanmaydi O'zlkni anglash o'zbekligini saqlab qolish namoyon qilish va jahonda o'zligini ko'rsata olish hamdir.

O'zbek tilining izohli lug'atida "g'urur" so'ziga quyudagicha sharh berilgan; insonning biror narsadan mamnun bo'lib, faxrlanish hissi, faxr ifxtixori hisoblanadi.

XX asrning eng buyuk hodisasi mustaqillik har-bir O'zbekistonlikning g'ururi!

Istiqlol-mustabitlik qo'rg'onlarni buzib, qaramlik zanjirlarini uzib tashlagan g'urur!

Istiqlol O'zbekiston xalqining qaddini tiklagan, yer yuzining jannatmakon bir go'shasida „O'zbek“ degan niyotda sodda, yigitlari tanti, bag'ri keng, mehnatkash xalq yashashini butun dunyoga bayon etgan qudratli va jur'atli g'urur.

"G'urur" sozining ta'mi non isidek izzatli, havo bilan suvdek aziz. Uni keksa ota-onamizdek, murg'ak go'dagimizdek ardoqda e'zozlab, yeru ko'kka ishonmasdan, boshimizni baland ko'tarib yursak arziydi. Uni ko'ksimizga, yuragimizga, vujudimizga joylab yashaylik chunki istiqloлга erishish uchun olib

borilgan uzundan uzoq kurashlarda g'ururimiz ko'p bor o'ksidi, to'plandi va qon yig'ladi.

Hurlik va ozodlik yo'lida shahid ketgan buyuk yozuvchimiz Abdulla Qodiriy yurt istiqboli haqida „O'tgan kunlar,, romanidagi Yusufbek Hoji tilidan shunday yozadi., Men ko'p umrimni shu yurtning tinchligi vafuqaroning osoyishi uchun sarf qilib, o'zimga azobdan boshqa hech bir qanoat hosil qilmadim. Ittifoq neligini bilmagan, yolg'iz o'z manfaati yo'lida bir- birini yeb ichgan mansabparast, dunyoparast va shuhratparastlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib, bizning odam bo'lishimizga aqlim yetmay qoldi.

Adib haq edi. Chindan ham yurtimiz tarixida zulmatli kunlar ko'p bo'ldi. Boylik va Shon- shuhrat vasvasasi dardidagi har nakas unga tosh otib ko'rdi. Yunon,Mo'g'il bosqinlari uning taraqiyotini ancha orqaga surib bordi. G'ururimiz toptaldi. Chor Rossiyasi, so'ngra sho'rolar zulmidan minglab O'zbek o'g'lonlari kafansiz ko'mildi. Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosir, Elbeklar.... Shohid ketdilar. Tobelikda qullik kishanida ko'nikib, xor- zor yurgan kezlarida xalqimiz juda ko'p narsa yo'qotdi. Lekin g'ururini saqlab qola bildi.

Istiqlol, eng avvalo, ruhiyatni uyg'otdi:

Mudroq vujudimizga shijoat bag'ishladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yangicha boshqarish tizimlari shakllanmoqda.

Dastlabki paytlarda, agar O'zbekiston mustaqil bo'lsa xalqi och qoladi, uni o'zga davlatlar bosib olishi mumkin, - deb karomat qiluvchilar ham yo'q emas edi.

O'shanda yurtboshimiz o'z xalqini omon saqlab, unga madadkor bo'ldi.

Cheksiz mehr va talabchanlik bilan jamiyatni, odamlarni boshqarish uchun eng ma'suliyatli ish bo'ldi.

Natijada, odamlar jamiyatda va o'z hayotlarida ijobiy o'zgarishlar bo'lishiga ishona boshladilar.

Prezident I. A. Karimov istiqlolning ilk kunlaridanoq milliy o'zbek davlatchiligi asoslarini yaratish, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, tarixiy haqiqat hamda milliy an'analarimizni tiklash, kuchli ishtimoiy

siyosat, tamomila yangi, o'ziga xos uzliksiz ta'lim tizimini yaratish, yangi, o'ziga xos ma'naviy va axloqiy qadriyatlar ustuvorligini, tinchlik, barqarorlik, milatlararo va fuqarolararo birodorlikni ta'minlash, tinchliksevar tashqi siyosatni amalgam oshirish tashabbuskori sifatida madonga chiqdi.

Butun dunyoda ro'y berayotgan yangiliklar, o'zgarishlar, bir qadar ma'naviy yuksalishlardan quvongan holda, ba'zan sergak tortib qolmagan. Nazarimda, istiqloldan juda ko'p narsa kutib, talab qilib, o'zimiz unga hech nima bermayotganga, tuyg'usini unutib, qorin tashvishi bilan yashayotganga, milliy g'urur tuyg'usini to'la tushunib yetmayotganga, hamma narsa uchun faqat Prezident o'ylashi, jon kuydirishi kerak deb fikrlashga o'rganib qolayotganga o'xshaymiz.

O'zbek tilining izohli lug'atida g'urur so'zining ikkinchi bir sharhi ham bor:

Insonning o'z qadr- qimmatini bilish, uni hurmat qilish hissi. Insoniyat o'z qadrini, o'zligini bilmaguncha, o'zida millatni himoya qilish tuyg'usini kamol toptirmaguncha, o'tmishining ham ertasining ham qadriga yetmaydi. G'ururi bor odam xalqning, g'ururli xalq esa Vatanining obro'siga obro' shuhratiga shuhrat qo'shadi.

O'z madhiyasi, Qomusi, Gerbi va bayrog'iga ega bo'lgan yurtimiz – O'zbekistonning mangu g'ururi. Yurtimizga bo'lgan cheksiz mehrimiz, tuygan g'ururimiz bizni ma'naviy yangilanish va islohatlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Ona – Vatandan faxrlanish va g'ururlanish tuyg'usini saqlash hamda uni kelgusi avlodlarga yetkazish, birinchi navbatda o'zimizga bog'liq.

Bolalik chog'larim: Nazarimda, bolalik chog'lari fazilatlarini o'zida bir umr saqlab qola bilgan odam juda baxtiyor bo'lsa kerak.

G'urur insonlarga berilgan tuyg'ular ichida eng bebahosidir. Ushbu hayotiy lovhalaridan tajribalardan ko'rish va kuzatish mumkin.

Milliy g'urur – g'urur, xalqning qudratini orzu intilishlarini mujassamlashtiradigan ulug' kuch. G'urur – xalqning, el- yurtning ulug'vorligi bilan ajralib turadi. G'urur xalqni xalq, millatni millat qilib ko'rsatadi.

Har qanday tarbiya ishining xususan, yoshlarda milliy g'ururni tarbiyalashning o'ziga xos omillari mavjud.

Dunyodagi barcha xalq va millatlarning o'zlariga xos milliy xususiyatlarini ifodalab, izohlovchi turli tuman tushunchalar rang-barang istiloh va iboralar mavjud. Shulardan biri millatimiz nomidan kelib chiqadi. O'zbekchilik tushunchasidir. Shu bois malakaviy ishimizning ushbu qismida, o'zbekchilik va bu bilan bog'liq ba'zi tushuncha, hodisa, jarayonlarni tahlil qiladi va unga e'tibor qaratiladi.

O'zbekchilik shunchalik noyob va o'ziga xos tushunchaki, dunyodagi boshqa xalqlarda milliylikning shu qadar soda va lo'nda ifodasi kam uchraydi. Shuning uchun I. A. Karimov aytganlaridek "Biz o'zimizni millat deb bilar ekanmiz, o'zbekchiligimiz haqida aniq tushunchaga ega bo'lishimiz kerak"².

Demak, milliylikimiz va milliy g'ururimizning yuksalishi kishilarimiz tomonidan o'zbekchilikni qanchalik anglab yetishga vashu asosda uni qay darajada rivojlanishiga bog'liq.³

O'quvchilarimiz milliy g'urning rivojlanishida madaniy merosning va millatimiz hayotidagi ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarning o'rni va rolini ilmiy-falsafiy tadqiq etish g'oyat katta ahamiyatga ega.

Darhaqiqat, istiqloq tufayli yuzaga chiqqan tarixiy xaqiqatlar "Avesto", "Urxun Enasoy bitiklari", va boshqa yozma manbalarda va yodigorliklarda, qadimgi Yunon, Xitoy, Fors, Arab manbalari turli yillarda yurtimizda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari xalqimizni dunyodagi eng boy madaniy merosga ega millatlardan biri ekanligini tasdiqlamoqda. Shuning uchun ham "Mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar davomida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi".

Milliy g'urur bu yoshlarni muayyan millatga mansubligidan, vatanidan, ona tilidan, milliy qadriyatlaridan, milliy davlatchiligidan faxrlanish tuyg'usidir.

² I. A. Karimov. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", "Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz". T.: O'zbekiston T. 7. 1997. 140-b.

Milliy g'urur bu- o'zlikni anglash omili. Milliy g'ururi yuksak yoshlarda quydagi fazilatlar shakllanadi. Birinchidan, irodali kishi bo'ladi. U sabr- toqatli, oq-qorani tanigan, yaxshi-yomonni ajrata oladigan, muammolarni bartaraf etishda izchil, orzu-ideallari uchun kurashga shaylangan bo'ladi.

Ikkinchidan, milliy g'ururi yuksak yoshlar jur'atli, mard kishidir. U muammolarni yechishga kirishar ekan, jonbozlik ko'rsatuvchi, tashabbuskor, mag'lubiyatdan qo'rqmaydigan, mardlik namunalarini ko'rsatadigan bo'ladi.

Uchinchidan, milliy g'ururi yuksak yoshlar insonparvardir. U oliyjanob qadriyatlarni hurmat qiladigan, barcha faoliyatida inson manfaatlarini va munosabatlarini bosh mezon qilib oladiga, insonga xizmat qilishni oily baxt deb biladilar.

To'rtinchidan, milliy g'ururi yuksak kishi vatanparvardir. U Vatan manfaatlarini barcha narsadan ustun qo'yadi. Vatanni himoya qilishga, kerak bo'lsa jon fido qilishga tayyor turgan kishidir. Vatan ravnaqiga xizmat qilish- uning buguni va kelajagidir. Va nihoyat, beshinchidan, milliy g'ururi yuksak kishi fidoyidir. U inson, millat, Vatan uchun o'zligidan kechishga tayyor, ezgulikka yo'naltirilgan g'oyalarga sodiq, ma'naviyatli va ma'rifatli kishidir. Undan kishilarga faqat yaxshilik qoladi.

Prezident Islom Karimov xalqimizni “ Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur” deganida milliy g'ururni shakllantirish va u asosda insoniy fazilatlarini tarbiyalash, pirovardida jamiyatni ma'rifatli qilishni ko'zlagan edi. Tarixiy xotira kelajak zaminidir.

Kelajakning bunyodkorlari bo'lgan bugungi yoshlarni tarix haqiqati bilan tanishtirish va uni ilmiy haqiqat sifatida anglatish dolzarb vazifalardan biridir.

Bu ish milliy g'ururi yuksak, vatanparvar shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi. “ O'tmish uni anglagandagina xizmat qilishini, kelajak esa uning haqiqiy bunyodkorigagina tegishli ekanligini anglamog'imiz kerak”. Bu ish milliy g'ururi yuksak, vatanparvar yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Milliy g'urur millat o'zini yaxlit ijtimoiy birlik ekanligini ongli ravishda his qilishdir. Bu shunday kuchli ruhiy bir holatki, u tufayli tarixiy birlik, qon-

qrindoshlik, til, madaniyat, ma'naviyat, iqtisodiy hayot va kelajak bitligi millat vakillarining qalbidan chuqur o'rin oldi.

Milliy bardamlik tuyg'usi milliy ongning negizidir. Milliy bardamlik yetuk va mukammal ma'naviy fazilat sifatida, milliy ong rivojlangan mamlakatlarda to'laroq namoyon bo'ladi. Mahalliychilik va guruhbozliklar milliy birdamlik hissiyotining kuchsizlanishiga olib keladi.

Milliy g'urur millat ma'naviy kamolotining barcha jihatlarini, merosi va bugungi qadriyatlarini o'z ichiga oladi.

Millat vakillari millati, vatani, yurti, mamlakati, jamiyati, buyuk allomalari, buyuk va boshqalar bilan faxrlanadilar.

Masalan, o'quvchilarimizga ulug' shoirimiz hazrati Alisher Navoiy bilan faxrlanish, Toshkentda va butun o'zbekistonda Alisher Navoiyni ulug'laydigan bir qancha yodigorliklari mavjud ekanligini tushuntirish.

Yirik markaziy ko'chalardan biri Navoiy nomi bilan ataladi. Ko'chaning naq ko'kragida joylashgan shoirlar hiyobonida Navoiyning salobatli haykali qad ko'targan.

Navoiy dahosidek ruhlanish ikki yo'nalishda ruh beradi. Birinchisi buyuk shoir ijodiy tafakkur mevalaridan ma'naviy bahramandlik tuyg'usi bo'lsa, ikkinchisi Navoiy merosiga, ulug'vor shaxsiga dahldorlik tuyg'usi, buyuk g'urur tuyg'usi.

G'urur yoshlarimizning moddiy va ma'naviy boyligi.

Ezgu orzularimiz qanchalik real voqeylikka aylansa, shunchalik moddiy qudratga ega bo'lamiz, ma'naviy boyiymiz.

G'urur tuyg'usi oddiylkdan, murakkablikka qarab tadrijiy o'sib boradi. Kishida ijtimoiy fuqarolik ruhiy taraqqiy etgan sari uning g'urur tuyg'usi ham shunchalik keng ko'lam, salmoqdor ma'no kasb etadi.

Kasb g'ururi bebaho insoniy fazilat jamiyatning moddiy tirgagi, kasbga sadoqat insoniylikka sadoqatdir. Kasb g'ururi tuyg'usi qanchalik pok va beg'araz bo'lsa, shunchalik insonni yuksaklikka ko'taradi.

G'ururdan mahrum etish xalq qo'lidagi, yoshlar qo'lidagi mash'alani olishdir. G'ururi yo'q yoshlar-o'tmishi yo'q, kelajagi qorong'u, ma'naviy majruq hamdir. Mansab shaxsiy manfaotlarga xizmat qilganda g'urur so'nadi.

O'zligini anglab yrtgan yoshlar qadr-qimmatini yuksak tutadi, g'urur tuyg'ularini abadiylashtiradi. G'urur yo'li-umum manfaati uchun mashaqqatli mehnat barqaror halol faoliyatdir.

Milliy o'zlikni anglash va milliy g'ururni shakllantirish har bir inson uchun ma'naviy barkamollikning muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Chunki u avvalo, o'zining kimligini bilib olsa, qaysi millatga mansubligini tushunib yetsa, avlod-ajdodlari, ular qoldirgan moddiy va ma'naviy merosni o'zlashtirsagina to'laqonli shaxs darajasiga yetishi mumkin. Bunday shxslar millatning aksariyat ko'pchilik qismini tashkil qilsagina bunday millatning istiqboli buyuk bo'ladi. Shuning bilan birga o'zini-o'zi chuqur anglab yetgan, ko'zi ochilgan, aqli raso, g'oyaviy-siyosiy jihatdan uyg'ongan va jiplashgan xalq va millatni, o'tmishida bo'lganidek, mustamlakachilik kishanlarida ushlab turish, tili, madaniyati, qadriyatlarini oyoq osti qilish, boyliklarini talab ketish, huquqlarini paymol etish, davlat mustaqilligidan judo qilish also mumkin emas.

Milliy g'urur va milliy g'urur-millat yashayotgan vatanning porloq istiqbolini ta'minlash uchun qanday imkoniyatlar va qulayliklarga ega ekanligini chuqur anglab yetish, ular bilan cheksiz faxrlanish, mavjud imkoniyatlarni yuzaga chiqarish, real voqelikka aylantirish uchun o'zini safarbar etish, barcha imkoniyatlari, kuch g'ayratini ishga solish demakdir. Millat mavjud bo'lishi uchun til, hudud va ma'naviyat asosiy shart bo'lgani kabi milliy g'ururni anglash o'z mohiyatiga ko'ra millat va elatlar uchun xos bo'lgan ma'naviyat xususiyatlarini ifoda etib, o'z funksiyasiga ko'ra milliy manfaatlarini himoya qiladi.

Milliy taraqqiyotimizning hozirgi davirdagi bosh vazifasi mustaqillikni yanada mustahkamlashdir. Jamiyat hayotining barqaror bo'lishida yurt tinchligi, millatlar va elatlar orasidagi hamjihatlik, ijtimoiy hamkorlik asosiy o'rinni egallaydi. Chunki yurt turli kelishmovchiliklardan, to's- to'palonlardan holi emas ekan, taraqqiyot to'g'risida gapirma ham bo'ladi.

Vatan ravnaqi yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlar aro totuvlik, diniy bag'rikenglik, tushunchalarini tahlil qilar ekanmiz, ularning barchasi O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimovning mustaqillik yillarida olib borayotgan oqilona siyosati tufayli amalgam oshayotganini qayd qilishimiz lozim.

Mamlakatimizda tinchlikni barqarorlashtirish, olib borilayotgan islohatlarni yanada chuqurlashtirish siyosiy- iqtisodiy, ma'naviy tarbiyaviy ishlarni yuqori bosqichga ko'tarish borasida erishilgan muvaffaqiyatlar vatan ravnaqini ta'minlaydi.

Ma'lumki, komil inson tushunchasi nisbiy harakterga ega bo'lib, u chegara bilmaydi. Uning barcha xususiyatlari xulq- atvori, fe'li, tashqi va ichki go'zalligi, bizning zaminimizga xos ishbilarmonligi, faolligi, yangilikka tashnaligi, vatanga va millatga qayg'uruvchanligi, takomillashib boraveradi.

Biroq, inson o'z milliy xususiyatlari bilan umum insoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan holda yashasa, unga ajdodlarning hamjihatlik, hamkorlik, o'zaro hurmat, sabr-toqat, sahovat va mehribonlik kabi oliyjanob fazilatlar, uning uchun hayotiy mezon bo'lib qoladi.

Shu ma'noda komil inson, uni tarbiyalash g'oyasi ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, insonni hamisha ezgulikka undaydigan olijanob g'oyadir. Komil inson g'oyasi xalqimiz tarixida azaldan ma'lum. U mustaqillik bois yanada yangi mazmun va mohiyati kasb etadi va etmoqda ham. Zero komil insongina bag'rining, o'zga xalqlarga hurmat bilan qaraydigan bo'ladi. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun qayg'uradi.

Bu yo'lda faol mehnat qiladi va o'zgalarga o'rnak bo'la oladi.

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari tabiiy bir- biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib uning muhim sohalaridan biri milliy istiqlol g'oyasi bilan, milliy g'ururning, milliy g'ururining o'zaro, chambarchas aloqada ekanligidan ham namoyon bo'ladi.

Ma'lumki muayyan davrdagi milliy g'oya, milliy mafkura, ya'ni jamiyatning asosiy maqsadini ideallar, demokratik tamoyillar bilan

uyg'unlashtirish masalasi ham juda muhimdir. Bu jarayon millatni o'z qobig'ida o'ralashib qolish havfidan ozod etadi. Unga jahon miqyosida taffakur yuritish imkonini beradi. Insoniyat uchunchi ming yillik sivilizatsiyasida shunday taroqqiyot yo'lini qo'lga kiritgan. Har bir millat va mamlakat taqdiri insoniyat istiqboliga dahildor bo'lib qoladi. Davrimizning o'ziga xos va murakkab bunday ijtimoiy- tarixiy jarayonlarini unutish also mumkin emas. Insonning o'z millati va vatani, shuningdek, insoniyat oldidagi masuliyati va burchini har bir yosh avlodga singdirish, yoshlarda vatanparvarlik tamoyillari bilan uyg'un kamol toptirish zaruriyatini yanada kuchaytirmoqda.

XXI asrda yashayotgan bugungi yoshlarimizning ma'naviyati ana shunday keng va chuqur, sof va beg'ubor bo'lmog'idarkor. To'g'ri, inson va jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab oluvchi ma'naviyat tushunchasining aniq vamutloq falsafiy mezonini belgilash qiyin. Lekin, bu degan so'z ma'naviyatning shakllanish va yuksalish me'yorlarini ko'rib bo'lmaydi, degan gap emas. Butun jamiyat miqyosida olib borilayotgan, inson ruhiyatini poklantirish va dadillantirish bilan bog'liq barcha ishlar uning qanchalik katta natijalar berayotganligidan dalolatdir. Mustaqillikkacha bo'lgan tushuncha, tasavvur hamda kechinmalarimizdan bugungi ruhimiz, ma'naviyatimiz naqadar katta farq qilishi hammaga ayon. Buni har kim o'ziga- o'zi beradigan “ Kecha kim edigu, bugun kim bo'ldik? “ degan savolning javobidan anglab olsa bo'ladi.

Yoshlar ma'naviyatini oshirish masalalarining birlamchi yoki ikkilamchi vazifalari yo'q. Ularning barchasi bir yo'la hamda doimiy diqat- e'tibor markazida turmog'i kerak. Shuning uchun ta'lim – tarbiya, bilim va dunyoqarahga katta ahamiyat berilmoqda. Bola tarbiyasi beshikdan boshlanganidek, ma'naviy barkamollik ibtidosini ham oila, bog'cha, maktab, oily o'quv yurtlari va hokoza maskanlardan boshlanadi. U kechiktirilsa, egri ko'chatni sindirmasdan to'g'irlash qanchalik qiyin bo'lsa, ma'naviy kamolotga erishish ham shunchalik kechikadi, yoki og'ir kechadi.

Biz fuqarolarning erkinligi va mustaqil tafakkuriga asoslangan jamiyat qurayotgan ekanmiz, yoshlarimizga jamiyatda mutloq erkinlik bo'lmasligini,

mustaqil fikrlash mas' uliyatsizlik va burchni unutish emasligini tushuntirib berishimiz zarur. Fuqaro erkinligi yangi ijtimoiy tuzum tomonidan kafolatlansada, fuqarolarning jamiyat manfaatlariga mos kelmaydigan mutlaqo erkin hatti harakatlarning kafolati emas. " Men mutlaqo erkin fuqaroman, mustaqil tafakkurli insonman, bilganimni qilaman " qabilada yashash tarzini o'zgartirish insonning ijtimoiy va milliy mohiyatiga zid aqidadir.

Shuning uchun o'quvchi yoshlar tarbiyasi va bu tarbiya zaminida ularning ma'naviyatini harakatga keltiruvchi mustaqillik g'oyalari, milliy- qadriyatlarni asrab - avaylash va rivojlantirish tuyg'usi, vatan istiqboli yo'lida halol mehnat qilish singari milliy mafkuraning o'zak tomirlarini singdirish yotadi.

Mustaqillik davrining o'quvchi yoshlari ana shunday, yurtimizning XXI asrdagi buyuk bunyodkorlik ishlariga o'zini safarbar aylaydigan fidoiy inson bo'lib, yetishayotganini hayotning o'zi isbotlab bermoqda. Ular umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o'rganib, zamonimizga tadbiq etgan holda, milliy o'ziga xosligimizni, asrlar sinovidan o'tgan an'alarimizni, udumlarimizni hamisha iymon- e'tiqod bilan yashash singari hayotiy tamoyillarimizni ham saqlab, yuksaltirib brogan holda bunday sharaflil ishlarni bajarishga harakat qilmoqdalar. Bugun o'quvchi yoshlarimiz mustaqillik tufayli o'ziga xos milliy tushunchalarimiz " or " , " andisha " , " nomus " , " vijdon " , " insof " , " g'urur " kabilarning haqiqiy ma'nosini anglab yetmoqdalar.

Hozirgi davrda kelajak avlodning istiqlol sari ishonch bilan borishida ularning ma'naviyatini shakllantirish kechiktirib bo'lmas vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Etuk madaniyatli insongina istiqlol mafkurasi g'oyalarini o'zlashtirib, ularga qat'iy amal qilgan holda ijtimoiy faoliyatni amalga oshiradi. Millat ma'naviyatini tiklash va rivojlantirishda milliy ong, til va madaniyat etakchi o'rin tutadi. Ulardan samarali foydalanish talabalarda milliy his-tuyg' u, g'urur va iftixorni o'stirish, shuningdek, milliy o'zlikni anglash tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Milliy g`ypyp shaxsning muayyan millatga mansubligi, uning milliy etnopsixologik xususiyatlari hamda ushbu millat tomonidan jahon madaniyatiga qo`shilgan hissadan faxrlanish tuyg`usidir .

Milliy iftixor esa - muayyan millatga mansublik va ushbu millat tomonidan jahon madaniyatiga qo`shilgan hissadan faxrlanish, shuningdek, o`zi mansub bo`lgan millatga sadoqatli bo`lish hissini tuyish va bu yo`lda amaliy faoliyat ko`rsatishdan iboratdir .

Milliy o`z-o`zini anglash - bu shaxs tomonidan milliy mansublik, ushbu millat tomonidan jahon madaniyatiga qo`shilgan hissadan faxrlanish u mansub bo`lgan millatga xos va ijobiy xarakter kasb etuvchi etnopsixologik xususiyatlar, milliy qadriyatlar va ular mazmunida ilgari surilgan g`oyalar mohiyatini tushunish va ularga muvofiq ijtimoiy faoliyatni tashkil etish jarayoni demak .

O`zbek xalqining ma'naviyatida millatning o`tmishi, hozirgi kuni o`z ifodasini topgan. Mustaqil O`zbekiston madaniyatning barcha yo`nalishlarida jahonshumul kashfiyotlarni yarata olgan minglab allomalarni etishtirib bergan o`lka hisoblanadi. Ular umumbashariy ahamiyatga ega ma'rifatning shakllanishiga o`zlarining munosib hissalarini qo`shganlar. Shuning uchun ham o`zbek milliy-ma'naviy merosi jahon madaniyatining ajralmas qismi, uzviy bo`lagidir. Bu vazifani muvaffaqiyatli hal qilish oliy ta'lim muassasalarida ishlayotgan har bir pedagogning milliy iftixor tuyg`usining mazmuni, uni talabalarda shakllantirish imkoniyatlari, bu sohadagi ziddiyatlarni bartaraf etish yo`llari, shakl, usul va metodlari bilan qurollangan bo`lishini taqozo qiladi. Shuning uchun ham kuzatishlarimiz natijasida talaba-yoshlarda milliy iftixor tuyg`usini shakllantirishning mazmuni, vosita, shakl, usul va metodlarini belgilash, bu sohada mavjud bo`lgan tarixiy tajribalarni umumlashtirish nihoyatda dolzarb ekanligiga ishonch hosil qildik.

Talaba-yoshlarda milliy iftixor tuyg`usini shakllantirishning asosiy vazifalaridan biri – ular o`rtasida keng ko`lamli ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish asosida ularda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar, jumladan, milliy iftixor

tuyg`usini shakllantirish yo`lidagi barcha imkoniyatlardan samarali, unumli foydalanish hisoblanadi.

Milliy iftixor tuyg`usini shakllantirishda talabaning milliy mansubligiga hurmat, unda millatning yutuqlaridan g`ururlanish ko`nikmalarini shakllantirish, o`z ustida ishlashga rag`bat uyg`otish, mustaqil ta'lim olishga intilishni shakllantirish va yo`naltirish kabi qator sub'ektiv-pedagogik omillar ham mavjudki, ularni uyg`unlashtirish va ko`zlangan maqsadga yo`naltirish tarbiyaviy ish samaradorligini belgilaydi, pedagogik ta'sirni kuchaytiradi.

Talabalarda milliy iftixor tuyg`usini shakllantirishda pedagogik sharoit-sharoitlar va omillarning ahamiyati katta. Oliy ta'lim muassasalaridagi sog`lom muhit, talaba va pedagoglarning umumiy fikri, uning shakllanganlik darajasi, o`z a'zosiga talabchanligi, o`zaro yordam, jamoa nazorati va hokazolar talabada milliy iftixor tuyg`usini shakllanishida samarali ta'sir ko`rsatishi, uning yo`nalishini belgilab berishi mumkin.

Milliy iftixor tuyg`usini shakllantirishning shakl va usullari turli-tuman bo`lib, oliy ta'lim muassasari pedagoglari ulardan o`z ish uslubiga moslarini tanlab olishda keng imkoniyatlarga ega. Milliy iftixor tuyg`usining shakllanganlik darajasini aniqlashda kuzatish, tahlil qilish, talabada milliy iftixor tuyg`usining shakllanganlik darajasini belgilash, individual yondashuv, baholash, rag`batlantirish va hokazolar samarali usullar sanaladi.

Talabaning asosiy faoliyati bilim olish va kasb mahoratini egallashdir. Shuning uchun oliy ta'lim jarayoni milliy iftixor tuyg`usini shakllantirishda muhim o`rin tutadi. Oliy ta'lim jarayoniga shaxsga ta'lim-tarbiya berish maydoni sifatida qo`yiladigan eng asosiy talablar talabalarni mustaqil ishlashga o`rgatish va buning uchun sharoitlar yaratish, ularni mulohaza qilish, fikrlash, umumlashma va xulosalar chiqarishga odatlantirish, ya'ni, aqliy faoliyatni rivojlantirish, intellektual salohiyatni boyitish va mustahkamlashdan iboratdir.

Milliy iftixor tuyg`usini shakllantirishda auditoriyadan tashqarida ham keng imkoniyatlar mavjud. Suhbat, bahs-munozara, badiiy kecha va anjumanlarni rejali tarzda uyushtirish, sayohatlarni tashkil qilishda mazkur vazifa echimiga bevosita

yondashilsa (muayyan mavzu doirasida o`tkazilsa), to`garaklar, sport mashg`ulotlari, musobaqalar, ko`rik-konkurslar, ijtimoiy foydali mehnat va boshqa faoliyat turlarida ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarni uyg`unlashtirgan holda amalga oshirish mumkin.

I.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Odobnoma" darslari orqali milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish imkoniyatlari.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy ong uyg'onishi va shakllanishi o'zlikni anglashdan boshlanishi haqida "Odobnoma" darslari orqali milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. O'zlikni anglash milliy g'ururni uyg'otadi. Milliy g'urur "Men o'zbekman" deb ko'krakka urish emas, balki o'z qadriyatlari, tarixi, tili, an'analari, buyuk siymolari bilan faxrlana olish hissidir. Bu his insonning o'ziga ham mas'uliyat yuklaydi. O'z millatiga munosib inson bo'lishga undaydi. Biroq o'zlikni anglash va milliy g'urur-bu tarixni bilish, madaniy merosni saqlash, til sofliqi, milliy qadriyatni tiklash bilangina kifoyalanmaydi. O'zlikni anglash o'zbekligini saqlab qolish, namoyon qilish va jahonda o'zligini ko'rsata olish hamdir.

O'zbek tilining izohli lug'atida "g'urur" so'ziga quyidagicha sharh berilgan: insonning biror narsadan mamnun bo'lib, faxrlanish hissi, faxr-iftixor hisoblanadi.

XX asrning eng buyuk hodisasi—mustaqillik har bir o'zbekistonlikning g'ururi!

Istiqlol—mustabidlik qo'rg'onlarini buzib, qaramlik zanjirlarini uzib tashlagan g'urur!

Istiqlol O'zbekiston xalqining qaddini tiklagan, er yuzining jannatmakon bir go'shasida " o'zbek " degan nihoyatda sodda, yigitlari tanti, bag'ri keng, mehnatkash xalq yashashini butun dunyoga ayon etgan qudratli va jur'atli g'urur!

G'urur so'zining ta'mi non isidek lazzevatli, havo bilan suvdek aziz. Uni keksa ota-onamizdek, murg'ak go'dagimizdek ardoqda e'zozlab, eru ko'kka ishonmasdan, boshimizni baland ko'tarib yursak arziydi. Uni ko'ksimizga, yuragimizga, vujudimizga joylab yashaylik! Chunki istiqloлга erishish uchun olib borilgan uzundan uzoq kurashlarda g'ururimiz ko'p bor o'ksidi, toptaldi va qon yig'ladi.

Hurlik va ozodlik yo'lida shahid ketgan buyuk yozuvchimiz Abdulla Qodiriy yurt istiqloли haqida "O'tkan kunlar" romanidagi Yusufbek Hoji tilidan shunday

yozadi: "Men ko'p umrimni shu yurtning tinchligi va fuqaroning osoyishi uchun sarf qilib, o'zimga azobdan boshqa hech bir qanoat hosil qilmadim. Ittifoq neligini bilmagan, yolg'iz o'z manfaati yo'lida bir-birini eb-ichgan mansabparast, dunyoparast va shuhratparastlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib. bizning odam bo'lishimizga aqlim etmay qoldi". Adib haq edi. Chindan ham yurtimiz tarixida zulmatli kunlar ko'p bo'ldi. Boylik va shon-shuhrat vasvasasi dardidagi har nokas unga tosh otib ko'rdi. Yunon, mo'g'ul bosqinlari uning taraqqiyotini ancha orqaga surib yubordi. G'ururimiz toptaldi. Chor Rossiyasi, so'ngra sho'rolar zulmidan minglab o'zbek o'g'lonlari kafansiz ko'mildi. Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosir, Elbeklar... shahid ketdilar. Tobelikda '«qullik kishaniga ko'nikib, xor-zor yurgan kezlarida xalqimiz juda ko'p narsa yo'qotdi. Lekin g'ururini saqlab qola bildi⁴.

Oyning o'n beshi yorug' deganlaridek, olamshumul voqea g'ururimizni osmon qadar yuksaltirdi. O'zbekiston 1991 yil 31 avgust kuni o'z mustaqilligini e'lon qildi. Yurtimiz istiqloli haqidagi fikrlar yosh avlodga milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish omili sifatida barcha "Odobnoma" darsliklarida keltirilgan.

Istiqlol, eng avvalo, ruhiyatni uyg'otdi. Mudroq vujudimizga shijoat bag'ishladi. Bugungi kunda mamlakatimizda yangicha boshqarish tizimlari shakllanmokda. Dastlabki paytlarda, agar O'zbekiston mustaqil bo'lsa, xalqi och qoladi, uni o'zga davlatlar bosib olishi mumkin, - deb karomat qiluvchilar ham yo'q emas edi. O'shanda yurtboshimiz o'z xalqini omon saqlab, unga madadkor bo'ldi. Cheksiz mehr va talabchanlik bilan jamiyatni, odamlarni boshqarish u uchun eng mas'uliyatli ish bo'ldi.

Natijada, odamlar jamiyatda va o'z hayotlarida ijobiy o'zga-rishlar bo'lishiga ishona boshladilar.

Prezident I.A.Karimov istiqlolni ilk kunlaridanoq milliy o'zbek davlatchiligi asoslarini yaratish, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, tarixiy haqiqat hamda milliy an'analarimizni tiklash, kuchli ijtimoiy siyosat, tamomila yangi, o'ziga xos uzluksiz ta'lim tizimini yaratish, yangi

⁴ Qurbonov M. "Odobnoma" Toshkent, "O'qituvchi", 1995 yil, 18-19-betlar.

ma'naviy va axloqiy qadriyatlar ustuvorligini, tinchlik, barqarorlik, millatlararo va fuqarolararo birodarlikni ta'minlash, tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshirish tashabbuskori sifatida maydonga chiqdi.

Butun dunyoda ro'y berayotgan yangiliklar, o'zgarishlar, bir qadar ma'naviy yuksalishlardan quvongan holda, ba'zan sergak tortib qolaman. Nazarimda, istiqoldan juda ko'p narsa kutib, talab qilib, o'zimiz unga hech nima bermayotganga, tuyg'usini unutib, qorin tashvishi bilan yashayotganga, milliy g'urur tuyg'usini to'la tushunib etmayotganga, hamma narsa uchun faqat Prezident o'ylashi, jon kuydirishi kerak, deb fikrlashga o'rganib qolayotganga o'xshaymiz.

O'zbek tilining izohli lug'atida g'urur so'zining ikkinchi bir sharhi ham bor: insonning o'z qadr-qimmatini bilish, uni hurmat qilish hissi. Darvoqe, odamzot o'z qadrini, o'zligini bilmaguncha, o'zida millatni himoya qilish tuyg'usini kamol toptirmaguncha, o'tmishining ham, ertasiningham qadriga etmaydi. G'ururi bor odam xalqiniig, g'ururli xalq esa Vatanining obro'siga obro', shuhratiga shuhrat qo'shadi.

O'z Madhiyasi, Qomusi, Gerbi va Bayrog'iga ega bo'lgan yurtimiz - O'zbekistonning mangu g'ururi. Yurtimizga bo'lgan cheksiz mehrimiz, tuygan g'ururimiz bizni ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Ona-Vatandan faxrlanish va g'ururlanish tuyg'usini saqdash hamda uni kelgusi avlodlarga etkazish, birinchi navbatda, o'zimizga bog'liq.

Bolalik chog'larim qattiq o'ksinsam yoxud o'rtoqlarim bilan arazlashib qolsam, bog'chamizning o'rtasida joylashgan uyga yashirinib olardim: yig'layotganimni hech kim ko'rmasligi uchun bo'lsa kerak. Bog'cha opa meni qayoqdan topish kerakligini yaxshi bilardi. Ko'p bora meni o'sha uychada uxlab yotgan holimda ko'tarib chiqqan. Bu murg'akkina qalbning adolatsizlikka qarshi ilk isyoni edi, ehtimol.

Nazarimda, bolalik chog'lari fazilatlarini o'zida bir umr saqlab qola bilgan odam juda baxtiyor bo'lsa kerak. Men bunday qilolmadim. Ulg'aygan sayin barcha o'ksinishlaru yo'qotishlarga, qalb iztiroblariga ko'nika boshladim. Go'yoki,

bularsiz hayot-hayot emasday edi. Ammo shukrki, dunyoda shunday kuyunchak, fidoyi insonlar borki, ular ba'zan o'zingga, tevarak-atrofga tanqidiy ko'z bilan qarashga majbur etib turadi va shu xislatlari bilan nazarimda, turmushimiz yaxshilanishiga o'zlarining ozmi-ko'pmi hissalarini qo'shishadi.

“Do'stim bilan xiyobonda to'satdan uchrashib qoldik. U o'rindiqa o'tirib, chuqur xayolga cho'ngandi. Hatto yoniga etib kelganimni ham sezmadi. Keyin men bilan quchoq ochib qo'rishdi. O'zini xursand bo'lganday ko'rsatmasin, baribir uning ko'zlarida qandaydir iztirobni ilg'adim”.

- Qara, naqadar mag'rur zot, - deya do'stim Sohibqiron Amir Temur haykaliga ishora qildi. - Yuziga, ko'zlariga razm sol. Ilg'adingmi?! G'ururni, shiddatni ilg'adingmi? Tasavvur qilgin, o'sha yillarda buyuk Amir Temurning mana shunday boqishiga dosh berolmay ne-ne g'animlar bosh egishgan. Qudrati oldida lol qolishgan.

Men Sohibqiron Amir Temur haykaliga qarar ekanman, do'stim aytayotgan holatlarni bobokalonimiz yuzida aniq ko'rganday bo'ldim. Shuncha vaqtdan beri shu erdan o'tib, hech qachon Sohibqiron Amir Temur haykaliga bu darajada ahamiyat bermagan ekanman.

— Asl millat ulug' ajdodlariga qo'yilgan har bir haykalga ehtirom bilan qaraydi. Mana bu haykalda ulug' o'zbek xalqining qudrati, g'ururi aks etgan. Afsuski, shu erga kelganda do'stim iztirob bilan bosh chayqab qo'ydi, bu erni o'zlariga makon qilib olgan anavi qiz-yigitlar buni anglamayaptilar... G'urursiz yashamoq naqadar ayanchli...

Men sal nariroqda behayolarcha o'tirib, sigaret tutatayotgan qizlarga qaradim. Ular bizga ko'z qisib qo'yib, o'zlaricha bir nimalar deb kulishardi. Shu chog'da men bu ko'rinishga anchayin ko'nikib ketganimni sezdim.

Biz uzoq sukut saqladik. Nogahon do'stim shartta o'rnidan turdi-da, metro tomon yo'l oldi. Metroda ham, metrodan chiqqanimizdan keyin ham u hech nima demadi. Faqatgina do'stim yashaydigan mahallaning boshiga kelganimizda, u menga yuzlanib, ma'yuslik bilan dedi: «men bu erga bobokalonim poyiga qalbimdagi dardni aytgani borgan edim, lekin...» Bilasanmi, menimcha, dunyoda

ikkita og`ir ayriliq bor. Biri mehribon onaizordan ayrilish. ikkinchisi esa milliy g`ururdan ayrilish! Bu ikki ayriliqning o`rnini hech nima bosa olmaydi....

Men do`stim bilan gaplashganimda kuz fasli bo`lishiga qaramasdan, kun issiq edi.

Poytaxtimizning ko`rkli maskanlaridan biri bo`lmish Amir Temur xiyobonida hamisha odam gavjum. Darhaqiqat, xiyobon elimiz, millatimiz faxrlansa arziydigan makonga aylangan.

Sohibqiron hazratlari-bizning milliy qahramonimiz. Bas, shunday ekan ul zotning muborak ismi bilan atalgan xiyobon ham bizning faxrimiz, g`ururimiz. Milliy g`urur insonlarga berilgan tuyg`ular ichida eng bebahosidir.⁵

⁵ Mahmudov Yu. G. "Milliy g`urur – ma`navi komillik mezoni", T., "Extremum press" nashriyoti, 2011 yil, 35-36-betlar

II. BOB BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA "ODOBNOMA" DARSLARI ORQALI MILLIY G'URUR TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH USULLARI.

II.1. "Odobnoma" fani orqali o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish usullari.

Bugungi o'zbek xalqining g'ururi butun dunyo bo'ylab qad ko'tarilayotgan bir paytda jaxon xalqlari orasida O'zbekiston eng rivojlangan mamlakatlar qatorida o'rin olayotgani bizga ma'lum. Xalqimiz milliy g'urur uchun belini bog'lab, do'ppisini bostirib, boshini baland ko'tarib yurush uchun zamin yaratildi.

Biz sog'lom avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishimiz kerak. Sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sogliqni emas, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy goyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz. Islom Karimov

1. Odobnoma fanining predmeti, maqsad va vazifalari:

Odob-tarbiya, go'zal axloq nazokatlilik demakdir. Odob tushunchasi va uning mazmuni haqida juda ko'p qoidalar, ta'riflar mutafakkir, ma'rifatparvarlar tomonidan berilgan.

Jumladan, Ahmad Yugnakiy shunday yozgan ekan: «Odobli bo'lishga yondoshib (o'zingni) kamtar tut, tartibli kishilarga ozod jon go'l bo'lsin» («Hibatul haqoyiq»)⁶.

Alisher Navoiy odobga quyidagicha ta'rif bergan edi: «Adab kichik yoshlarni ulug'lar duosiga sazovor etar va ul duo barakati bila umrdin barhurdor. Adab va tavazu do'stlig' ko'rgusida jilo berur, ikki jonibdin yorug'liq yetkurur» («Mahbubul qulub»dan)⁷.

Yo'z Koshifiy fikricha: «Odob — bu qalbni yomon so'zlardan va nojo'ya xulqdan saqlab qolish, o'zini va o'zgalarni ham hurmat qila bilish, shu bilan birga o'zini va o'zgalarni ham obro'sini tushurmaslikdir» («Axloqi Muhsiniy» asaridan)⁸.

⁶ Zunnunov A. "Pedagogika tarixi", T., 2006 yil, 32-bet

⁷ O'sha manba, 50-bet

⁸ O'sha manba, 55-bet

O'tmishda odobnoma fan sifatida maktab va madrasalarda o'qitilgan. Unda quyidagi asarlardan foydalanganlar: Imom Taqoviyning «Aqoid», Abdurahmon Koyaning «Islom axloqi», az-Zamaxshariyning «Osariy axloq», A. Avloniyning «Turkiy guliston yohud axloq» va hokazo.

Yuqoridagi asarlarni o'rgatishdan bosh maqsad yosh avlodni yuksak ma'naviy fazilatlar egasi qilish, uning qalbiga yaxshilik urug'ini sepish, islom ma'naviyati, urf-odatlarini o'rgatish, imon, e'tiqod egasi qilib tarbiyalashdir.

Odob — xalqimizning boy milliy merosida, xalq og'zaki ijodiyoti va yozma yodgorliklarida o'ziga xos va mos odoblilik g'oyalari, fazilat va qadriyatlariga ega.

Odob hayotdan o'qish-o'rganish, oila tarbiyasi zahirida paydo bo'ladigan muomila-munosabatlar majmuasidir. Odob insonlarni ruhiy holatlarini aks ettiruvchi madaniy munosabatlar tizimidir. Odob va axloq tushunchalari chambarchas bog'liq bo'lib, insonning axloqi mavjud qonun va qoidalar me'yoriy talablarini bajarishda o'z ifodasini topadi.

Odobnoma fanining asosiy manbalari:

- xalq og'zaki ijodi qirralari;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar;
- xalq pedagogikasi;
- diniy-ma'naviy tarbiya;
- mutafakkir va ma'rifatparvarlarning asarlari;
- odob durdonalari (pandnoma va nasihatnomalar);
- o'zbek oila pedagogikasi;
- Prezident I. Karimov asarlari;
- milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasiga doir asarlar.

Shaxsning ma'naviy barkamolligi xalq pedagogikasida, diniy ma'naviyatda, pedagogik qadriyatlarda alohida e'tiborga sazovor bo'lib kelgan. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalda qo'llashda «Ta'limning yangi modeli» jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirishga olib keladi. O'zining

qadr-qiymatini anglaydigan, irodasi baquwat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo‘lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega⁹.

Odobnoma fanining maqsadi:

- milliy istiqlol g‘oyasi asosiy tushuncha va tamoyillari dasturi doirasida o‘quvchilar qalbida mus- taqillik g‘oyasiga sadoqat hissini tarbiyalash;
- barkamol avlodga xos odoblilik san’ati va ma- daniyatini o‘rgatish;
- o‘zbek xalqining milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlarini amalda qo‘llash malakalarini shakl- lantirish.

Mustaqillik sharofati tufayli boshlang‘ich sinflarda odobnoma fanining o‘ziga xos va mos mazmuni va tizimini yaratishga erishildi.

Odobnoma «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushun- cha va tamoyillar» fanining dastlabki bosqichi bo‘l- ganligi sababli quyidagi talablarga amal qilmoq lozimdir.

Odobnoma fanini o‘qitishga qo‘yiladigan asosiy talablar:

- insoniyattarixiy taraqqiyot jarayonidamadaniy, ma’naviy, milliy merosdagi avlod-ajdodlarimizdan qolgan odob-axloq haqidagi bilimlardan boxabar qilish;
- Markaziy Osiyo mutafakkir va ma’rifatpar- varlarining asarlaridagi hikmat, o‘git va nasihatlarini o‘igatib, ularga amal qilishni uqtirish;
- tabiatga to‘g‘ri munosabatning mohiyati, ta- biatni muhofaza qilish insonning burchi ekanligi, ekologik nochorlikka olib keladigan sabablarni anglash va baholash bo‘yicha bilimga ega bo‘lish;
- ota-ona, Vatan oldidagi burchni anglash va unga sodiqlik nima ekanligini bilish;
- o‘z-o‘zini anglash shart-sharoitlarini, inson qadri va hurligini anglash, uning tabiatini, milliy va umuminsoniy madaniyatni, ona tilini saqlash, ma’- naviy taraqqiyotni bozor iqtisodiyoti bilan uzviy rivoj- lanishini tushunib etish;
- yuksak insoniy fazilatlar mohiyatini anglatish, ulaiga ongli munosabatda bo‘lish, yaxshini yomondan ajrata olish bilimiga ega bo‘lish;

⁹ «Barkamol avlod orsusi». T., «Sharq», 1999, 180-bet

— ta'lim-tarbiya jarayonida beriladigan bilimlar yaxlit va ijtimoiy shart-sharoitlar, milliy va tarixiy ma'naviy omillar, umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini tushuntirish;

— o'quvchilarni bilim olish bilan birga yuksak insoniy komillik mohiyatini tushunib amal qilishga o'rgatish;

— odobnoma darslarida ma'naviy, ma'rifiy, iqtisodiy, huquqiy, kasbiy tushunchalarning mohiyatini uzluksiz anglatib borish muhimdir.

2. Odobnoma fanidan 1—4-sinflar o'quvchilarining egallashi lozim bo'lgan tushuncha, bilim, ko'nikma va malakalar Odobnoma fanidan beriladigan tushunchalar:

1-sinf o'quvchilariga:

— Odobiylik sifatlari — salomlashish, «Assalomu alaykum», «Vaalaykum assalom», oila, ota-ona hurmati, mehnatsevarlik, Vatan tuyg'usi, Vatan himoyachilari, ziyoratgohlar, yaxshi-yomon odatlar (yolg'onchi, chaqimchi, kamtarlik, maqtanchoqlik), sehri so'zlar (rahmat, marhamat, yaxshi)...

Tabiat, uni asrash, xalq o'yinlari, afsona, ertak, bobolarimiz Alisher Navoiy, Amir Temur aytgan pand-o'g'itlari.

2-sinfda bu tushunchalar rivojlantirilgan holda ular negizida yangi tushunchalar beriladi: burch, mehr, inson qadri, vaqtni asrash, o'z-o'zini anglash, mehmon kutish, an'ana, marosim, do'stlashish odobi.

3-sinfda esa: Istiqloq va uning asoschisi, yoshlik, beg'uborlik, qarilik, donolik, tejamkorlik, isrofgarchilik, hunar, orastalik, ehtiyotkorlik, tabiat go'zalligi, qanotli me'morlar, rivoyat, hikoyat, hikmat, hadis va hadisshunos allamomalar — Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy.

4-sinfda oldin berilgan tushunchalar zamirida onaga mehr, farzand istiqboli, Vatan, iymon, mustaqillik, nafsni boshqarish, yurt tinchligi, xalq farovonligi, millatlararo totuvlik, bola huquqlari, o'zlikni anglash.

Odobnoma fanidan beriladigan bilimlar:

— odob va axloq, insonga xos fazilatlar haqida avlod-ajdodlarimiz yaratgan merosning mazmuni, mohiyatini va unga amal qilishga o'rgatish;

— odob — inson ko‘rki va ma‘naviy boyligi ekanligini, va mutafakkir ma‘rifatparvarlar asarlaridagi hikmat, rivoyat va o‘g‘itlarni, milliy sharqona odob-axloq qoidalari, fazilatlarini, o‘zbekona urf-odat va an‘analarining milliy xususiyatlarni farqlash va amalga oshirish usullarini o‘rgatish;

— Vatan tuyg‘usi, vatanparvarlik, mustaqil O‘zbekiston — ona Vatanimiz, uning gul-gul yashnashi, rivojlanishi haqida bilim hosil qilish;

— milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g‘urur, iftixor mohiyatini tushuntirish va ularni ardoqlashga o‘rgatish;

— kundalik hayot mazmuni o‘rab olgan ona tabiatni asrash va ardoqlash ekanligini o‘rgatish.

Odobnoma fanidan ko‘nikma va malakalar hosil qilish:

— odob-axloqqa xos sifatlarni o‘quvchilarning kundalik ehtiyojiga aylantirish;

— milliy va umuminsoniy qadriyatlarni (urf-odat, rasm-rusum, an‘ana, marosim) o‘rganib, ularni turmush tarzida qo‘llay olish;

— O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi — farovonlik qonuni ekanligi;

— yurt tinchligi, xalq farovonligi, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik tushunchalarining mazmuni;

— komil insonni tarbiyalashga qaratilgan axloq- odob sifatlarini ongli, ixtiyoriy bajarishga odatlantirish;

— ajdodlarimiz qoldirgan komil insonga xos ijobiy sifatlarni yomon holatlardan ajrata bilishga, yaxshilikni o‘ziga shior qilib olishga o‘rgatish;

— Mustaqil Vatanimizning har bir muvaffaqiyati, istiqlol yo‘lida qilinayotgan ishlari bilan faxrlanish va Vatanga mehr hissiyotini uyg‘otish, har qanday tajovuzkor kimsalardan nafratlanish;

— odobsiz insonlarga nisbatan murosasiz bo‘lish, nafratlanish, ularni shu holatdan chiqarish chora- tadbirlarini izlashga o‘rgatish:

— «Bola huquqlari to‘g‘risida Konvensiya» orqali o‘quvchilarda huquqiy madaniyatni shakllantirish.

3. Milliy istiqlol g'oyasi va maflazasini tarbiyalashda odobnoma fanining imkoniyatlari

«Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo'yicha ta'lim dasturini yaratish va Respublikada ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyi- shidan keyin 2001 yilning 25 fevraligacha «Odob- noma» dasturi, darsliklarining mazmuni milliy istiqlol g'oyasi asosiy tushuncha va tamoyillari bilan boyitildi.

Odobnoma darsligi bo'yicha DTS yaratildi, dastur, darsliklar nashr etildi. Odobnoma fani milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasini shakllantirishda keng imkoniyatlarga ega. Bu fandan o'tiladigan har bir mavzu o'zining xarakter xususiyatiga ko'ra o'quv- chilarda O'zbekiston istiqloli va istiqboli haqida bilim berishi bilan birga ularni komillikka yetaklaydi.

Odobnoma fanining maqsad va vazifasi kelajagi buyuk davlatimiz farzandalarini odobli va yuksak axloqli qilib tarbiyalashdan iboratdir. Bu darslar zamirida milliy urf-odat, rasm-rusum, an'ana, ma- rosim, bayramlarimiz, momolarimiz ardoqlagan ibo, hayo, pokizalik, bobolarimiz qadrlagan g'urur, jasorat, mardlik, ajdodlarimiz boy ma'naviy merosidan namunalar, qo'ying-ki o'zbek xalqining qalb gavhari yotadi. Farzandlarimizni iymon-e'tiqodli, vijdonli, adolatli, mehr-muhabbatli, o'z Vatanining sodiq farzandlari qilib tarbiyalash odobnoma darslarining bosh maqsadidir.

Odobnoma darslarida milliy istiqlol g'oyasi ham o'quvchilar yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda singdirib boriladi, ilk tushunchalar beriladi.

Yurtboshimiz I. Karimovning «Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillik, millatidan qat'i nazar, odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi, kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi. O'zbeklar diyorida o'z Vataniga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom

— O'zbekiston aholisiga xos fazilatdir», degan fikrlari komil va sog'lom avlodga xos fazilat bo'lib, ular odobnoma fanini o'qitish orqali o'quvchilar ongida, qalbida shakllantiriladi.

Odobnoma darslarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar zamirida milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi haqida o'quvchilarga beriladigan dastlabki tushuncha va bilimlar: Mustaqil O'zbekistonimizning istiqlol yillarida erishgan yutuqlarining sabablari, ya'ni Vatanga cheksiz muhabbat, yurt tinchligi, xalq farovonligi, ijtimoiy o'zaro hamkorlik, millatlararo totuvlik ekanligini sodda, oddiy misollar orqali to'g'ri tushuntirish. Komil insonga xos bo'lgan barkamollik dastlab odobdan boshlanishi g'oyasi xalq og'zaki ijodiyotidan boshlab, milliy meros va ma'naviy qadriyatlarda o'z aksini topgan. Shu sababdan odobnoma fani yosh avlodda milliy g'oya va mafkurani shakllantiruvchi debocha fan hisoblanadi.

Demak, milliy g'ururga ega bo'lgan kishi o'z qishlog'i, o'z tumani va viloyatini jonu dildan ortiq sevadi, uning ravnaqi uchun xizmat qiladi. Bu g'urur ularning tarbiyasiga, ma'naviyati va ma'daniyatiga chuqur ta'sir etib, ajdodlar qo'li bilan yaratilgan boy moddiy va ma'naviy merosni ko'z qorachig'iday asrash uchun faxrlanish imkonini beradi. Biz vazifani boshlang'ich sinflardayoq yo'lga qo'yishimiz lozim bo'ladi.

Uning mazmunida ulug'vorlik, mag'rurlik kabi sifatlar o'z aksini topgan.

G'urur deganda, ko'z o'ngimizda haq va haqiqat g'aydalanadi. Bobolarimizning hammasi g'ururli zotlar bo'lganlar. Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Boburlar o'z g'ururlarini minoradek tutushgan. Shunday ekan, bugungi yoshlarimiz bobolari merosiga sodiq qolib, ular yaratgan odob- axloq me'yorlariga sodiq bo'lishi lozim. G'ururli bo'lish, birinchi navbatda, xalq manfaatini yoqlash, elga foyda keltirish. Xalqimiz o'z hayoti, turmish tarzida eng olijanob g'oyalarni mujassam etgan axloq- odob qoidalariga, ma'naviy qadriyatlarga tayanib kelgan. Shunday ilg'or g'oyalar tufayli elimizda adolat, rostgo'ylik, halollik, pokizalik, bironing haqiga xiyonat qilmaslik, nogironlarga mehirlilik bo'lish, odamiylik, qardoshlik, vatanparvarlik, shirinsuxonlik va boshqa insoniy fazilatlar rivoj topgan.

O'zbek xalqining g'ururini ifodalovchi bir qancha urf odatlar, rasm- rusmlar, marosimlar, odatlar, udumlar, an'analar mavjud. Jumladan, o'zbek xonadonlarida ota nomi mag'rur va ulug' shaxs sifatida e'tirof etildi. Uning oldida gunoh qilish, Tangri oldida gunohkor bo'lish bilan barobar. Har bir yigit- qiz buni o'z g'ururi, deb bilishi lozim. Kichik yoshdanoq o'quvchilarga mana shu tushunchalarni shakllantirishimiz muhimdir.

Ayniqsa, yosh farzandlarimizning o'z yurtiga mehr- muhabbatli bo'lishi, uning mustaqilligini mustahkamlashi, vatanimiz shon- shuhrati dunyo miqiyosiga olib chiqishi ruhida tarbiyalash har birimizning muqaddas burchimiz. Bunday ezgu maqsadlarni bajarishda har bir O'zbekiston fuqarosi g'urur va g'urur bilan yashaydi va uning me'yoriga amal qiladi. Bu tushunchalarni albatta boshlangich sinflarda "Odobnoma" o'quv fani orqali yosh avlod ongiga singdirishimiz mumkin. Quyida milliy g'ururni shakllantirishda "Odobnoma" fanini o'qitishning ahamiyatini ko'rib chiqamiz.

Odobnoma fani ilmiy, milliy va umumbashariy qadriyatlari mazmun mohiyatin bilishiga, boy merosimizni o'rganib unga nisbatan vorislik hissini uyg'otishga ajdodlarimizning iborati, o'git va ta'limotlariga amal qilishga, islom dinidagi ma'naviy-axloqiy tushinchalarning mohiyatini to'g'ri tushinishga mustaqillikning ko'rkam istiqboliga ko'makdosh bo'lishiga chorlaydi.

Odob-tarbiya, go'zal axloq nazokatligi demakdir. Odob tushunchasi va uning mazmuni uning shakllanishiga doir juda ko'p qoidalari ta'riflar, mutafakkir, ma'rifatparvarlar tomonidan berilgan.

Jumladan! Ahmad Yugnakiy shunday yozgan ekan „Odobli bo'lishiga yondoshib o'zingni kamtar tut, tartibli kishilarga ozod jon qo'l bo'lsin („Hibatul haqoyiq)¹⁰.

Alisher Navoiy odobga quyidagicha ta'rif bergan ekan „adab kichik yoshlarni ulug'lar duosiga sazovar etar va ul duo barakatu bila umrdin barhurdor.“ Adab va tavozu do'stlik ko'zgisida jilo berur, („Mahbubul Qulibdan“) Voiz Koshifiy fikricha „Odob bu qulibni yomon zo'zlardan va

¹⁰ Yo'ldoshev A. "Milliy g'urur tuyg'usi" "Muloqot" jurnali. 1998 y. №2, 56-bet

noto'g'ri, nojiya xulqdan saqlab qolish, O'zini va o'zgalarni ham hurmat qila bilish, shu bilan birga o'zini va o'zgalarni ham obro'sini tushirmaslikdir. („Axloqiy Muhsiniy” asaridan)¹¹

O'tmishda odobnoma fan sifatida maktab va madrasalarda o'qitilgan. Unda quyudagi asarlardan foydalanganlar, Imom Takoviyning, „Aqoid” ,Abdurahmon Koyaning, „Islom axloqi” A. Avloniyning, „ Turkiy Guliston yoxud axloq” va hakoza....

Yuqoridagi asarlardan bosh maqsad yosh avlodni yuksak ma'naviy fazilatlari egasi qilish, uning qalbida yaxshilik urug'ni sepish, islom ma'naviyati, urf–odatlarini o'rganish.

“Odobnoma” fanining maqsad va vazifasi kelajagi buyuk davlatimiz farzandlarini odobli va yuksak axloqli qilib tarbiyalashdan iboratdir.. bu darslar zamirida milliy urf-odat, rasm-rusm, an'ana, marosim, bayramlarimiz, momolarimiz ardoqlagan ibo, hayo, pokizalik, bobolarimiz qadrlagan g'urur, jasorat, mardlik, ajdodlarimiz boy ma'naviy merosidan namunalar, qo'yingki o'zbek xalqining qalb gavhari yotadi.

Farzandlarimizni iymon-e'tiqodli, vijdonli, adolatli, mehr-muhabbatli, o'z vatanining sodiq farzandlari qilib tarbiyalash “Odobnoma” darslarining bosh maqsadidir.

Boshlang'ich sinflarda “Odobnoma” darslarida milliy istiqlol g'oyasi ham o'quvchilar yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda singdirib boriladi, ilk tushunchalar beriladi.

Odob o'rgatishning mohiyati va vazifalarini I. A. Karimov o'zining “O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li” asarida “Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillik, millatidan qat'iy nazar, odamlarga hayrixohlik bilan munosabatda bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi, kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi. O'zbeklar diyorida o'z vataniga mehr- muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat, ehtirom-o'zbekiston aholisiga xos

¹¹ Yo'ldoshev A. “Milliy g'urur tuyg'usi” “Muloqot” jurnali. 1998 y. №2, 56-bet

fazilatdir” degan g’oyasi komil va sog’lom avlodga xos fazilat bo’lib, “Odobnoma” fanini o’qitish orqali o’quvchilar qalbida odoblilik tushunchalari shakllantiriladi.

Boshlang’ich sinflarda “Odobnoma” darslarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar zamirida milliy istiqlol g’oyasi va mafkurasi haqida o’quvchilarga beriladigan dastlabki tushuncha va bilimlar: Mustaqil o’zbekistonimizni 21 yil moboynidagi o’sib, rivojlanishidagi yutuqlar sababli, ya’ni vatanga cheksiz muhabbat, yurt tinchligini, xalq farovonligi, ijtimoiy o’zaro hamkorlik, millatlararo totuvlik ekanligini sodda oddiy misollar orqali to’g’ri tushuntirishdadir. Komil insonga xos bo’lgan barkamollik dastlab odobdan boshlanishi g’oyasi xalq og’zaki ijodiyotidan boshlab, milliy meros va ma’naviy qadriyatlarda o’z aksini topgan. Shu sababdan “Odobnoma” fani yosh avlodda milliy g’oya va mafkurani shakllantiruvchi debocha fan hisoblanad.

Boshlang’ich sinflarda “Odobnoma” fanining dastlabki bo’limi: “Odob salomdan boshlanadi”,

Asosiy mavzular: “odob salomdan boshlanadi”, “Assalomu alaykum hikmati”, “salom bermaslik va javob qaytarmaslik”. Unda dastlab “Salom”, “Assalomu alaykum”, “valaykum assalom”, “odob” kabi tushunchalarga izoh beriladi. O’quvchilar to’g’ri salomlashish qoidalari bilan tanishtiriladi.

Salomlashish hamma milliatga xo surf-odat ekanligini uqtirish. “Assalomu alaykum” – “sizga sog’lik, tinchlik tilayman” ma’nosini anglatishini tushuntirish. Salomlashish qoidalari, o’z aro ko’rinish tartibi: jamoat joylarida, telefonda va hokoza. Rasmlar asosida va hayotiy misollarda o’rgatish.

Salomlashish odobi: ochiq chehra, qo’lini ko’ksiga qo’yish, boshni ozgina egiltirib, tabassum bilan yoqimli tavushda – “Assalomu alaykum” deyish.

Salomga javob qaytaruvchi ham odob bilan “Valaykum assalom”, deb javob qaytarishi lozimligini uqtirish. So’ngra Q. Muhammadiyning “Odob yaxshimi, oftob yaxshi?” Sheridan parcha o’qib, izohlash.

Bu darslar ko'proq noan'anaviy tarzda o'tkazilib, o'quvchilarni erkin fikrlashga chorlaydi, xalqimiz yaratgan maqol, metal, hikmat, ertak va qo'shiqlardan foydalaniladi.

Navbatdagi darsda "Salom bermaslik va javob qaytarmaslik" mavzusini tushuntirganda, salom berilmaydigan payt va joylar haqida alohida to'xtaladi. Odatda namoz o'qiyotgan, ovqatlanayotgan, uxlayotgan shaxsga salom berilmaydi, hojatxonaga kirganda ham salomlashilmaydi.

Ushbu darsda asosan darslikda berilgan rasmlardan foydalaniladi. Salomlashish odobi bola qalbida muhirlanishi uchun o'qituvchi bir-biri bilan salomlashish insonga xos bo'lgan eng muqaddas burch ekanligini tushuntirish lozim.

"Oila – muqaddas dargoh" bo'limida "Bizning oilarniz" mavzusi berilgan.

Bu darsda dastavval oila haqida bobo, buvi, ota-ona va farzandlarning oilada tutgan o'rni haqida ma'lumotlar beriladi. 1-sinf "odobnoma" (O. Hasanboyeva, Toshkent, "O'qituvchi", 2000) darsligida ushbu mavzuga berilgan rasmlar hamda ko'rgazmali qurollar asosida suhbat o'tkaziladi, o'quvchilarda oiladagi keksalarga hurmat, kichiklarga izzat hissini tarbiyalashga e'tibor qaratiladi. Oilada bajariladigan yumushlarda kimning hissasi qanday bo'lishi haqida to'xtalib o'tiladi. Darsni asosan suhbat usulida olib boorish maqsadga muvofiqdir. Mavzuga mos she'rlar, qo'shiqlardan foydalanish mumkin.

Shundan so'ng, ma'naviyatimiz beshigi bo'lmish oilaning jamiyatdagi tutgan o'rni qanday bo'lishi lozimligiga to'xtalib, mustaqil o'zbekistonimizning kelajagi uchun odobli, bilimli har tomonlama kamolatga erishgan yoshlar kerakligi, bunday farzandlarni tarbiyalash har bir oilaning vazifasi ekanligi aytib o'tiladi.

Suhbat asosida davlatimiz tomonidan oilaga onaga, bolaga bo'lgan e'tiborga alohida urg'u beriladi.

"Oila yili", "Ayollar yili", "Sog'lom avlod yili" va nihoyat 2001 yil "Onalar va bolalar yili" deb e'lon qilinganining mohiyatini soda va lo'nda qilib ochib

berish orqali o'quvchilarga biz qanday jamiyat qurayotganimiz haqida tushuncha beriladi.

“Vatanimiz ziyorotgohlari” mavzusi. Bu mavzuni o'rganishda avvalo “ziyosat” va “ziyosatgoh” so'zlariga izoh beriladi.

“Ziyosat” – muqaddas hisoblangan joyga borib sig'inish, elga tanilgan arbob yoki o'ziga yaqin kishining qabriga boorish, eslash.

“Ziyosatgoh” – ziyosat qilinadigan muqaddas yer, qadamjo.

O'quvchilarga mustaqilligimiz sharoiti bilan ko'plab qadamjolarining qayta tiklanganligi hamda ayrim bobolarimiz nomlari, ishlari elga tanilib, ularga atab ziyosatgohlar parpo etilganligi haqida ma'lumot beriladi.

Darslikdagi Ahmad al-Farg'oniy, Imom al-Buxoriy, Amir Temur ziyosatgohlarining rasmlari ko'rsatilib ular haqida suhbat uyushtiriladi. Darslikka qo'shimcha tarzda Abu Mansur al-Maturidiy, Marg'iloniy kabi bobolarimizga o'rnatilgan yodigorliklar haqida ham ma'lumotlar berish mumkin. Imkon bo'lsa, o'quvchilar bilan o'zi yashab turgan joydagi biror ziyosatgohga boorish maqsadga muvofiq bo'ladi.

“Ilm va hunarning xosiyati haqida donolar o'g'itlari” bo'limini o'rganishga 3 soat vaqt ajratilgan. O'qituvchi mavzularni darslikka tayangan holda yoritadi hammda ilm va hunar kishiga nima uchun zarur, hunarni to'g'ri tanlay bilish, o'z kasbining ustasi bo'lib yetishishi haqida hayotiy misollar keltiradi. Darslikdagi maqol, rivoyat, savol va topishmoqlar orqali berilgan bilim mustahkamlanadi.

Bu bo'lim orqali bolalarda ilm va hunarga havas uyg'otiladi, jamiyatimizning kelajagi uchun ilm va hunarli kishilar zarurligi uqtiriladi.

Mavzuni o'rganishda ilm va hunarni insin hayoti uchun zarurligi, ilimli va hunarli kishilar dunyoda eng izzatli, hurmatli bo'lishlari haqida ma'lumot beriladi.

Ilm kitobdan, hunar-ustozdan o'rganilishi haqida to'la qonli ma'lumot beriladi. Kitobxonlik insonni zukka, odobli bo'lishida bosh manba ekanligi ular ongiga singdiriladi. Kitob va ilm haqidagi maqol, ertak, rivoyat va hikoyatlardan foydalanish orqali ilm va hunar mohiyati tushuntiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga odobnoma darsi va boshqa o'quv predmetlari orqali milliy g'urur va milliy iftixor fazilatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

II.2. 3-sinf o'quvchilarida "Odobnoma" darslari orqali milliy g'ururni shakllantirish vositalari.

«Ta'lim» dasturining bajarilishi har bir o'qituvchining jamiyat va davlat oldidagi ma'naviy burchi deb hisoblanishi kerak. Demak, o'quvchining burchi davlat ta'lim standartida bayon qilingan talablarni bajarishdan iborat.

Ta'lim standartida quyidagilar belgilangan:

1. Ta'lim dasturlari bajarilishining majburiyligi.
2. O'quvchilar, o'quv yuklamalarining maksimal hajmi.
3. Bitiruvchilar o'quv ta'lim saviyasi.

Boshlangich sinflarda odobnoma konsepsiyasi —

yo'riqnoma, ta'lim standarti, dasturi va metodik qo'llanmalarni yaratishda odobni shakllantiruvchi xalq milliy va umumbashariy merosiga asoslanib quyidagi yo'nahshlardagi manbalarni tanladik:

1. Aql-zakovat vositasida amalga oshirilgan xalq donishmandligi, xalq og'zaki va yozma yodgorliklari.
2. Islom dinining muqaddas kitoblari — Qur'oni Karim va Hadisi Sharif.
3. Mutafakkir, ma'rifatparvar pedagog va olimlar- ning asarlari.
4. Mustaqil respublikamizning qonun-qoidalari.
5. I. Karimov asarlari.
6. Davriy matbuot materiallari.

Shular asosida odobnoma o'qitishning yo'nalish- larini belgiladik:

1. Odob va axloqqa doir tushimchalarning ildizlari insonning irsiy rivojlanishi bilan bog'lanishi, hayotiy tajribalarning nazarda tutishsi.
2. Odob-axloqning mohiyati, maqsadi bolalar qalbida ishonch hosil qilishga qaratishsi, ya'ni bola aqh, qoi bilan nimaiki qilmasin, uning zamirida, ongida fikr, tushuncha, bilim, iste'dod, qobiliyat sifatida shakllanadi.
3. Odob-axloqni tarbiyalashda bolalarning jamoa- dagi munosabati hamjihatlik va qayg'uruvchanlik holatlariga asoslangan bo'lishi.
4. Odob-axloqiy tushunchalarni uzluksiz rivojlan- tirish.

5. Odobga oid fazilatlarni o‘quv-tarbiya jarayoni- ning har bir bosqichida rivojlantirish. G‘oyalarning uzviy rivojlanishiga e‘tibor berish.

6. O‘qituvchi, ota-ona va jamoat talab va ta’sirchanligining birligi.

Odobnoma dasturida berilgan mavzularni bolalar qalbiga yetkazish ko‘p jihatdan o‘qitishning yangi pedagogik texnologiyasiga bog‘liq.

«Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida ta’limning tuzilishi, bosqichlari, mazmuni, o‘quv reja, dastur va darsliklari davr talabiga moslashtirildi.

1998—1999-o‘quv yilidan boshlab umumta’lim maktablarining 1—4-sinflarida tajriba sifatida odob- noma fani davlat o‘quv rejasi asosida o‘qitiladigan bo‘ldi. Shu munosabat bilan 1—4-sinflar uchun zamon talabiga mos «Odobnoma» dasturi yaratildi.

«Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fanining dastlabki bosqichi odobnomadir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy istiq- lol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo‘yicha ta’lim dasturlarini yaratish va respublika ta’lim tizimiga joriy etish to‘g‘risida»gi farmoyishida 2001-yilning 15-avgustiga qadar umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun «Odobnoma», «Vatan tuyg‘usi», «Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari» fanla- ridan dastur va darsliklarni qayta ishlab chop etish ta’kidlangan edi.

Odobnoma dastur-darsliklari yuqoridagi Farmoyi- sh asosida qaytadan ishlab chiqildi. 1—4-sinf «Odob- noma» dasturidan joy olgan mavzular oddiydan boshlab tobora murakkablasha boradi, biri ikkinchisini to‘ldiradi, boyitadi. 1-sinfdagi. «Odob — salomdan boshlanadi» mavzusida o‘quvchilarga dastlabki salomlashish odobi o‘rgatiladi. 2-sinfdan asta-sekin rivojlantirilib, insonlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi omil ularning odobi, ochiq chehrasi ekanligi, 3-4- sinfdagi mavzularda xushxulqlilik, insondagi odoblilik yuksak fazilat ekanligi asoslab beriladi.

1—4-sinflar uchun yangi yaratilgan «Odobnoma» dasturining qimmatini shundaki, kerak bo'lgan o'rinda Qur'on, Hadisdan foydalanilgan holda diniy aqida- parastlikning oldini olish masalalari ham ochib berilgan.

Bu 1-sinfdagi bobolar o'g'itlarida jamlangan bo'lib, «Ilm-hunaming xosiyati», «Navoiy bobomiz pandu nasihatlarini biz uchun o'mak» kabi dars soatlari asosida tashkil qilinadi. Xuddi shu g'oya 2-sinfdagi «Bobolardan bolalarga hikmatlar» umumiy mavzusiga uzviy bog'lanib ketadi. 3-sinfdagi «Donolar o'g'itlari» uch soatlik bir-biriga bog'liq darslar asosida umumlashtiriladi. Ya'ni «Yusuf Xos Hojib bobomiz», «Navoiy haqidagi rivoyatlar», «Husayn Voiz Koshifiy kim?» mavzularidan iborat bo'lib, bolalarni bu donishmandlarning «aql chirog'i»dan bahramand etish odobnoma darslarining umumiy ahamiyatini yanada oshiradi. 4-sinf rejasining dastlabki mavzulari «Ona mehri», «Ota jasorati», «Farzand istiqboli» deb boshlanadi. Bunda «Odob va axloq qomusi», «Hadisi sharif — tarbiya manbai» kabi ikki soatlik dars olib boriladi. Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (SAV) hadislaridan o'quvchilarni voqif etish lozim, bunda ayniqsa Imom al-Buxoriyning to'plamlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Ularda ilm o'rganish, har bir insonga mehr-shafqatli bo'lish, ota-onaga hurmat, ustozlarga iliq munosabat, qo'yingki, bu durdonalarda turmushning har bir sohasiga daxldor o'g'itlar mujassamdir. Ana shulardan namunalar o'qib berish o'qituvchi mahoratiga bog'liq deb o'ylaymiz.

1—4-sinflar uchun odobnoma fani bo'yicha tuzilgan mazkur dasturdagi bo'lim va mavzularda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari hisobga olingan. Ular asta-sekin takomillashtirilib, rivojlantirilgan. Odobnoma darslariga har bir sinf uchun haftasiga bir soatdan, jami 34 soat ajratilgan.

Har bir bo'lim va mavzular oxirida o'qituvchi uchun mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yxati tavsiya etilgan.

Shuningdek, «Odobnoma» dasturida har bir mavzu oxirida o'quvchilarga amaliy mashg'ulot uchun savol- topshiriqlar berish orqali, ijodiy ishlash ko'zda tutiladi.

Maiumki, har bir xalqning o‘z o‘tmishi, qadriyat- lari, ijod durdonalari, urf- odat, rasm-rusumlari bor.

Ular asrlar mobaynida saqlangan, qadrlangan, zamonaga moslab sayqallangan. Shu o‘rinda 1-4- sinflarda “Odobnoma” darslariga milliy xalq o‘yinlarining kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Qo‘shiq va so‘z, mavsumiy milliy- ana’anaviy xalq o‘yinlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yoshiga moslashtirilgan.

2-sinf rejasidan o‘rin olgan mavzular bolaning o‘zini qayerda va qanday tutishi haqida tushuncha beradi. Xalqimizda mehmonni ulug‘lash boqiy qadriyat. Shu bois «Mehmon kutish odobi», «Mehmonga borish odobi» mavzulari ham 2- sinf rejasidan o‘rin olgan. O‘qituvchi nechog‘lik bu mavzuga dildan yondoshsa, qiz va o‘g‘il bolalardagi ajralib turuvchi xislatlar haqida mufassal tushunchani «Qobusnoma»dagi pand-nasihatlar bilan uyg‘unlashtirsa, nur ustiga a‘lo nur bo‘ladi.

O‘qituvchi har bir mavzuni o‘tishda tarbiyaviy ahamiyatga ega Qur‘oni Karim oyatlari, Hadisi sharif namunalari, hikoyat va rivoyatlar, maqohar, hikmatlar, masallardan, Imom al-Buxoriyning «Al-adab al- mufrad», Kaykovusning «Qobusnoma», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», Mahmud Koshg‘ariyning «Odob as-solihin», Voiz Koshifiyning «Javohimoma», «Axloqi Muhsiniy», Sa‘diy Sheroziyning «Guliston», «Bo‘ston», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Alisher Navoiyning «Mahbubul qulib», «Hayratul abror», Umar Hayyomning «Navro‘znoma» hamda Abdulla Avloniy, Fitrat va Cho‘lpon asarlariga murojaat qilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

1—4-sinflarda odobnoma darslarini o‘tishda pandu nasihatlar bilan chegaralanib qolmaslik kerak. Mash- g‘ulotlar qiziqarli, sermazmun, zamon talabiga mos bo‘lishi lozim. Dars jarayonida xalqimiz turmushidagi axloq-odob qoidalariga to‘g‘ri amal qilib kelayotgan oilalar hayoti bilan tanishtirish, mehnat va urush faxriylari, kasb-hunar ustalari, mashhur kishilar bilan uchrashuvlar o‘tkazish va amaliy mashg‘ulot sifatida muzeylarga, tabiat qo‘yniga sayru sayohatga borish ham maqsadga muvofiqdir. Mazkur fan mashg‘u- lotlarini turmushning achchiq-

chuchugini tatib koʻrgan, oilalik, bola tarbiyasida ibrat tajribaga ega boʻlgan muallimlarga yuklash lozim.

Oʻqituvchi axloq-odobga doir mavzularda mashgʻu- lot oʻtkazganda, bola tarbiyasiga xos sharqona odatlar, rasm-rusumlar, naqlarga batafsil toʻxtaydi. Bu haqda bitilgan hikmat va rivoyatlardan oʻqib beradi. Qiz bolaga mayinlik, uyat-andisha, or-nomuslik, tortinchoqlik, pokizalik, did-farosatlilik, sarishtalik, hushyorlik, chaqqonlik-lobarlik, orastalik, ota-ona, aka-uka, qarindosh-uruglarga mehr-shafqatlilik, sabr-qanoatlilik fazilatlari munosiblik takror-takror uqtiriladi. Oʻz gahda oʻgʻil bolalarga toʻgʻri soʻzlilik, mardlik, bagʻri- kenglik, saxiylik kabi fazilatlar hayotiy misollar bilan tushuntirilsa, nur ustiga aio nur boiardi.

Odobnoma ilmini 1-sinfdan boshlab oʻrgatishdan koʻzda tutilgan maqsad, oʻsib kelayotgan yosh avlodni milliy anʼanalar, urf-odatlarni bilgan holda, ruhini pokiza saqlash, ota-onadan mamnun boʻlish va ularni hurmat qilish, tabiatni sevish, ustozni ulugiash, milliy gʻururimizni himoyalash ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

«Odobnoma» dasturida berilgan mavzularni bola qalbiga yetkazishning taʼsirchanligini oshirish uchun darsda radio, televizor, videofilm va koʻrgazmali qurollardan, mavzuga mos sheʼr, qoʻshiqlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Darsni esa savol-javob, ertalik shaklda, sahnalashtirib oʻtkazish maqsadga muvofiqdir. Chunki qolipsiz oʻtiladigan darslar, oʻyin, suhbat shakldagi darslar bolalar uchun qiziqarhdir. Bunday darslarda oʻquvchilarning oʻzlari bevosita qatnashadilar.

Bu qoʻllanmada ana shunday darslarning taxminiy ishlanmalari berildi.

Maktabga ilk qadam qoʻygan 1-sinf oʻquvchisining odob va axloqi qanday boʻlishligiga alohida ahamiyat berildi.

Odobnoma fanini oʻqitish jarayonida oʻquvchilarga axloq va odobga doir quyidagi bilim, qoʻnikma va malakalar shakllantiriladi:

— umuminsoniy qadriyatlar va milliy merosimiz asosida xalq va ajdodlarimiz yaratgan «nima yaxshi, nima yomon»ligi haqida bilimga ega boʻladi;

— sharqona odob-axloqqa doir fazilatlar mazmuni, mohiyati va ularning hayotiy zaruriyati haqidagi tushunchalarning uzviy rivojlanishi o‘quvchi e’tiqodiga aylanib boradi;

— odob-axloqqa doir bilimlar O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi va milliy istiqlol g‘oyasi bilan uyg‘unlashtirilib, hosil bo‘lgan tushuncha va bilimlar mustahkamlanadi;

— o‘quvchilarga o‘z-o‘zini boshqarish odobi, madaniyati haqidagi tushunchalar mustaqil fikrlash orqah rivojlantiriladi;

— odobnoma ilmi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malaka hosil qilish uchun dastlabki axloq-odobga doir tushunchalarni bolaning qalbiga yetkazishda uzviylik tizimiga amal qilish;

— ahloq-odobga doir bilimlarni bolaning kundalik ehtiyojiga aylantirish;

— o‘quvchilarda shakllanishi lozim bo‘lgan ijobiy fazilatlardan g‘ururlanish, mamnunlik hissiyotini tarbiyalash;

— badxulqlik — yomon odatdan nafratlanish va undan uzoqlashish kerakhgini takror anglatish;

— o‘quvchining kundalik faoliyatida o‘z xatti- harakatlarini baholay olishiga o‘rgatish ko‘zda tutiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida “Odobnoma” darslari orqali milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida “Odobnoma” darslari orqali milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish bo‘yicha maktab boshlang‘ich sinflarida tajriba sinov ishlarini olib bordik.

Mana, mamlakatimiz mustaqilligining yigirma bir 'yillik to‘yi nishonlanishiga ham sanoqli kunlar qoldi. Hademay yurtimizning barcha go'shasida — shaharlar-u qishloqlarda, mahalla-yu ovullarda ozodlik va hurlikni tarannum etuvchi qo‘shiqalar yangraydi, ularga karnay-surnay sadolari jo‘r bo'ladi.

Yurtimizdagi barcha ta'lim muassasalari o'quvchilari esa bu kunni qo'shaloq bayram sifatida tantana qilishadi. Chunki butun yoz davomida miriqib dam olgan va kuch-g‘ayratga to'lgan o'quvchilar yana jonajon maktab quchog'iga qaytadilar.

Yangi o'quv yilini bayramlar bilan kutib olish esa har bir o'quvchining qalbiga iliqlik berishi, tabiiy. Eng ulug' va eng aziz bayramni o'zgacha ruhda tashkil etish o'quvchilar qalbiga muhrlanishi va uzoq yillar xotirasida saqlanib qolishiga xizmat qiladi. O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf va Azim Suyun she'rlaridan foydalanib yozilgan quyidagi tadbir ssenariysi Siz — boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ko'mak beradi, deb o'ylaymiz. Bayramni maktab sahnasi yoki sinfxonada o'tkazish mumkin.

Ushbu tadbir men tajrib sinov ishlari olib brogan termiz shahridagi 15-maktabning 3-sinfi rahbari Jabborova Xalima opa bilan birgalikda tashkil etildi/

Tadbir o'tkaziladigan joy bayroqchalar, gullar va sharlar bilan bayramona bezatilgan. Devorlarga ilingan «Taqdirimsan, baxtimsan, erkin va obod Vatan!», «Istiqlol – milliy iftixorimiz», «Yurtimiz g'ururimiz», «Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin!» kabi shiorlar ilingan.

Davruga to'rt nafar o'quvchi kirib keladi va o'zaro suhbatlasha boshlaydilar.

1 - o'quvchi: — Bolalar, bilasizlarmi, bugun qanday kun?

2- o'quvchi: — Albatta, bilarniz! Axir shunday quvonchli kun xayoldan ko'tirilishi mumkinmi?!

1- o'quvchi: — Unda biz ham bugungi kunni bayram qilaylik, maktabimizdagi barcha sinf o'quvchilari astoydil tayyorgarlik ko'rishmoqda.

3- o'quvchi: — To'g'ri aytasan, do'stim. Lekin...

1 - o'quvchi: — Nega o'ylanasan?

3- o'quvchi: — Axir biz tayyorgarlik ko'rmadik-ku, buni awalroq o'ylashimiz kerak edi.

4- o'quvchi: — Biz bunday tadbirlarga doimo shay turganmiz. Tadbir ssenariysiga kelsak, altaqachon tayyorlab qo'ydik. Qolaversa, bayramning qanday O'tishi o'zimizning iqtidorimizga bog'liq. Mana, masalan, sinfimizda she'r yozadigan, qo'shiq kuyiyadigan, raqsga tushadigan bolalar bor. Bundan tashqari ko'pchiligimiz turli sport to'garaklariga qatnashamiz.

3- o'quvchi: — Ha, biz o'z bilim va mahoratimizni ko'rsatishimiz kerak, to'g'rimi?

Bolalar (birgalikda): — Barchangizni bugungi bayram dasturini tomosha qilishga taklif etamiz.

Bolalar sahna ortiga o'tadilar.

Sahna ortidan ovoz: — Onaday buyuk, nonday aziz Istiqlol xalqimizning azaliy orzusi edi. Nihoyat, 1991- yil 31- avgust kuni Respublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida Respublikamizning davlat mustaqilligi to'g'risidagi bayonot qabul qilindi. 1- sentabr esa O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligi kuni deb e'lon qilindi. Bu asrlar davomida ota- bobolarimiz orzu qilgan kun edi!

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi yangradi.

Davruga ikki boshlovchi-o'quvchi kirib keldi.

1- boshlovchi:

— Bugun boshimizda quyosh

parvona,

Yorug' yo'llarimiz mangu bardavom.

Nigohlarda hayrat, yuraklar yona,

Biz—baxtti bolalar deymiz: Assalom!

2- boshlovchi:

— Tinglang, yangramoqda she'rlar,

qo'shiqlar —

Istiqlol kuylari ko'ngilga malham.

Biz — ozod g'unchalar,

Qalbimizda surur, deymiz:

2- boshlovchi: alaykum,

Barchangizni O'zbekistonning to'yi bilan muborakbod etamiz

1- boshlovchi: ,,

— Tarix yozaversam;,. osmoni

Bugun istiqlolni

Vatanim ertasini

Yurtboshidir sarboni,

O'zbek, O'zbekiston!

2- boshlovchi:

— Muborak, ey, istiqloling

Kun kelgay;

O'zbek, elim

Qizlar ijrosida «Sarvinozim» raqsi. Raqs tugagach, boshlovchilar va o'quvchilar davraga chiqishadi. Ular Vatan so'zini ta'riflaydilar:

1 - boshlovchi: — Aslida, dunyoda Vatan tuyg'usidan qimmatli tuyg'u yo'q.

2- boshlovchi: — Vatan mehriday samimiy muhabbat yo'q.

1- o'quvchi: — Vatan — kindik qoni to'kilgan tuproq!

2- o'quvchi: — Vatan — beshigimiz, uyimiz, mahallarniz, jonajon maktabimiz!

3- o'quvchi: — Vatan — bu muqaddas ona tilimiz, buyuk millatimiz!

4- o'quvchi: — Vatan — ona tabiat in'om etgan barcha boyliklar va noz-u nematlardir!

1-boshlovchi: — Uzoq yillar biz o'z vatanimizda o'zligimizni, ya'ni otabobolarimiz aslida qanday odamlar bo'lgan, ulardan qanday allomalar yetishib chiqqan, ularga xos qanday qadriyatlar mavjud edi, bilmasdik. Bunga sabab, uzoq yillar tarixning buzib ko'rsatilganligi bo'ldi. Faqat istiqlol tufayligina haqiqiy tariximiz buloqlarining ko'zi ochildi. Shoir aytganidek:

Shamol tegib ko'krakka,

O'zimizni tanidik.

Malham bo'lgan yurakka,

So'zimizni tanidik.

2' boshlovchi: — Ana shu ko'krakka tekkan shamol qadimiy an'ana, bayram, rasm-rusum, urf-odat, marosimlarimizni tikladi. Ko'p yillar ta'qib ostiga olingan Navro'zni xursandchilik bilan bayram qila boshladik. Navro'z, Ramazon va Qurbon hayiti kabi bayramlarimiz dam olish kuni deb belgilandi. Kishilarga mehr-muruvvat ko'rsatish, saxovat qilish kabi udumlarimiz yana o'z asliga qaytdi.

1-boshlovchi: — Amir Temur, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad Farg'oni. Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Mahmud Zamaxshariy, Xoja Ahrori Valiy, Abduxoliq G'ijduvoni, Burhoniddin

Marg'inoniy, Abu Mansur Moturidiy kabi buyuk ajdodlarimizning, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Mahmudxo'ja Behbudiy kabi dunyoga mashhur bobolarimizning muborak nomlari tiktandi.

2- boshlovchi: — Ularning boy milliy-madaniy va ma'naviy meroslari bilan dunyo tanishmoqda. Endi o'zbek o'zining, ajdodlarining kimligini biladi va o'z qadr-qimmatini jahon tarozusiga bermalol qo'ya oladi.

1 - boshlovchi: — Bugun ana shu allomalarning avlodlari ularga munosib ravishda ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Yurtimiz yoshlari barcha jabhalarda, xususan, ta'lim, san'at va sport sohasida O'zbekiston nomini dunyoga tanitayotir.

2- boshlovchi: — Bunda, albatta, bizlarga yaratilayotgan shart-sharoit va imkoniyatlarning o'rni beqiyos. Maktab o'quvchilari uchun o'tkazilishi an'ana tusini olgan «Umid nihollari» sport musobaqalari ko'plab yoshlarni jahon arenalariga olib chiqmoqda. Marhamat, davramizga ularni taklif etamiz.

Rishod Sobirov, dzyudo bo'yicha ikki karra jahon chempioni: — Millatning dunyoga yuz tutishida salohiyatli va iqtidorli yosh avlodning jismonan sog'lom, ruhan barkamol bo'lib voyaga yetishi muhim masaladir. O'tgan yili Fransiyada o'tkazilgan dzyudo bo'yicha jahon chempionatida zafar quchib, yurtimiz madhiyasi jaranglaganda, awalo, O'zbekistonimiz sharafini himoya qilish baxtiga muyassar bo'lganimdan shodlandim. Bu tuyg'uni so'z bilan ta'riflab bo'lmaydi.

Dilshod Rasulov, bokschi: — Bugun siz-u biz uchun barcha imkoniyat mavjud: o'zbek sporti rivoji yo'lida fidoyilik ko'rsatayotgan jonkuyar Prezidentimiz da'vati minglab navqiron avlod vakillarining qalbiga nur ulashib turadi, yangidan yangi g'alabalarga undaydi: «Buyuk davlatni faqat sog'lom millat, sog'lom avlodgina qura oladi».

1- boshlovchi: — Yurtimiz dovrug'ini bizning tengdoshlarimiz ham dunyoga taratmoqda. Joriy yilda Fransiya davlatida o'tkazilgan A.Glazunov nomidagi VII xalqaro tanlovda Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyining 3- sinf o'quvchisi Doston G'ulomjonov, 4- sinf o'quvchisi Kim Che Von skripka, shu sinfnig yana bir o'quvchisi Abdulboriy Abdug'afforov violonchel yo'nalishi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritdilar.

2- boshlovchi: — Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanidagi 15- umumta'lim maktabi o'quvchisi O'g'iloy Obidova esa 13 nafar gimnastikachi yurtdoshlarimiz safida Germaniyada o'quv-yig'in mashg'ulotlarida bo'lib qaytdi. Tengdoshlarimizning bu kabi yutuqlari bizni ham ruhlantirdi. Biz ularga havas qilamiz. Ular bilan fahrlanamiz, g'ururlanamiz.

Bir o'quvchi ijrosida «O'zbekiston bolasi» qo'shig'i yangraydi. Naqoratga barcha bolalar jo'r bo'lishadi. Sinfdagi sport to'garaklariga qatnashuvchi bolalar qo'shiqqa mos ravishda o'z iste'dodlarini namoyish etishlari mumkin.

1- boshlovchi: — Vatan muhabbati, O'zbekiston qudrati oldida tillar ojiz qoladi. Istiqlolning naqadar buyuk ne'mat ekanligi qo'shig'-u kuylarga sig'maydi.

2- boshlovchi: — Ha, O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf o'z she'rlarida Vatan ishqini kuyladi. Ayniqsa, «Iqror» nomli she'ri shoirning ona yurtiga bo'lgan cheksiz muhabbatining ifodasi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'quvchilar mazkur she'rni yoddan aytadilar:

1- o'quvchi:

— O, ota makonim.

Onajon o'lkam,

O'zbekiston, jonim to'shay

soyangga.

Senday mehribon yo'q,

Seningday ko'rkam,

Rimni alishmasman bedapoyangga.

2- o'quvchi:

— Bir go'sha suv bo'lsa, bir go'sha

qirlar,

Qancha yurtni ko'rdim, qancha taqdirlar.

Qayga borsam suyab, boshni tik tut deb,

Tog'laring ortimdan ergashib yurar.

3- o'quvchi:

— Ko'rdim suluvlarning eng

faranglarin,

Yo xudbinman men, yo bir sodda kasman men —

Parijning eng go'zal restoranlarin,

Bitla tandiringga alishmasman men...

Safar Barnoyevning «Bobonur» hikoyasi asosida tayyorlangan kichik sahna ko'rinishi namoyish etiladi. (O'quvchilar boshqa hikoya va rivoyatlar asosida ham sahna ko'rinishi tayyorlashi mumkin).

1-boshlovchi: — Aziz do'stlar! Istiqloq siz-u bizdan fidoyilikni, vatanparvarlikni, sadoqat-u muhabbatni talab etadi. Bugun o'zini shu el farzandi deb bilgan har bir o'g'il-qiz qalbida Vatanimizga yuksak muhabbat, chuqur e'zoz va ehtirom hissi mujassam. Yuraklari g'urur va iftixorga to'la tengdoshlarimiz qalbida kelajakka ishonch hissi jo'sh urmoqda.

2- boshlovchi: — Mustaqil davlatimizda bizlarning ta'lim-tarbiya olishimiz, amin-erkin unib-o'sishimiz uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ulardan unumli foydalanaylik. Vatanimizni ko'z qorachig'iday asrab, milliy qadriyat va an'analarimizga sadoqatli bo'laylik. Zero, Vatanimiz kelajagi bizning qo'limizda.

1-boshlovchi: — Shuning bilan O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligi- ning 21 yilligiga bag'ishlangan bayram tadbirimiz o'z nihoyasiga yetdi.

2- boshlovchi: — Barchangizga yana bir bor bayram muborak bo'lsin!
«O'zbekiston» qo'shig'i bilan tadbirga yakun yasaladi

Bu tarbiyaviy tadbirni o'tkazishdan maqsad shuki, yosh avlodda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirib bo'lish mumkin.

Boshlang'ich sinflarda “Odobnoma” darslari asosida sinfdan tashqari mashg'ulotlar tashkil qilish va yuqorida keltirilgan tadbirlarni amalga oshirish mumkin. Bu kabi tadbirlar yosh avlodda o'z yurtidan, fahrlanish, milliy iftixor, milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Bu kabi tadbirlarni boshlang'ich sinflarda ko'plab o'tkazish orqali oldimizga qo'ygan maqsadga erishamiz.

Sinfda o'quvchilarga o'z vatani bilan faxrlanish, g'ururlanish hissini shakllantirish lozimdir. Yosh avlodimiz albatta mustaqil buyuk, rivojlangan davlatda yashayotgani uchun ham faxrlanishi lozimdir. Bu milliy g'ururdir.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda Odobnoma fani bo'yicha tadbirlar uyushtirish mumkin.

Quyida men tajriba ishlarni olib brogan Termiz shahar 15-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisining "Odobnoma" darsi bo'yicha o'quvchilarni milliy g'ururni shakllantirish bo'yicha dars ishlanmasi keltirilgan.

Sinf: 3

Dars nomi: Odobnoma

Mavzu: Vatan tuyg'usi

Milliy tarbiya tizimida, millat ma'naviyatini tiklash va rivojlantirish o'quvchilarda boshlang'ich sinflardan milliy g'urur va iftixorni o'stirish, shuningdek, milliy o'zlikni anglash tuyg'usini shakllantirish, bu borada esa ta'lim muassasalarida ma'naviy muhitni barqarorlashtirishga xizmat qiluvchi samarali usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Samarali tashkil etilgan singdirilgan vatanparvarlik tushunchasi o'quvchilarning xulq-atvorida oilasida, keyinchalik mahallada, mehnat jamoalarida, o'quv muassasalarida rivojlanib, shaxsning ongi va qalbiga mustahkam singib boradi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishga yo'naltirilgan Odobnoma fanidan bir soatlik dars ishlanmasini havola etamiz. Vatan bilan faxrlanish hissini o'quvchilarda shakllantirish lozimdir.

Mavzu «Vatan tuyg'usi».

Maqsadlar:

ta'limiy: mavzu borasida mukammal tushuncha berish, yosh avlod qalbida kindik qoni to'kilgan tuproqqa, ona yurtiga muhabbat uyg'otish, o'z hayotini Vatan, xalq, millat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga bag'ishlagan vatandoshlarimiz haqida keng qamrovli bilim berish;

tarbiyaviy: o'quvchilarga eng awal oilada, so'ngra maktabda shakllanib boruvchi Vatan tuyg'usi va vatanparvarlik tuyg'usining tarbiyaviy ahamiyatini tushuntirish hamda guruhlarda ishlash orqali ularda bir-biriga nisbatan o'zaro hurmat va hamjihatlik hissini shakllantirish;

rivojlantiruvchi: mustaqil fikrlashga, o'z fikrini qisqa va dalillar asosida erkin bayon etishga o'rgatish.

Bajariladigan vazifalar:

1. O'quvchilar ongiga Vatan tuyg'usi, milliy iftixor va milliy g'urur tushunchalarini mukammal singdirish.

2. «Vatan tuyg'usi va milliy g'urur bilan yashagan bobolar» mavzusidagi matn bilan atroflicha tanishtirish.

3. O'quvchilar tomonidan matn mazmuni va mohiyatining chuqur o'zlashtirilishiga erishish.

4. «Vatan» she'rini rfodali o'qish. Shu mavzudagi maqollar bilan tanishish.

Jihozlar: buyuk siymolar aks etgan rasmlar, tarqatma materiallar, bukletlar, qo'shimcha adabiyotlar, guruhlarda ishlashda rioya qilinuvchi qoidalar aks etgan rangli slaydlar.

Dars jarayonida qo'llani- luvchi metodlar: suhbat, savol- javob, «Klaster», «Venn diagram- masi», «Qizil va yashil kartochkalar bilan ishlash» metodlari.

Darsning borishi O'qituvchi tomonidan guruhlarda rioya etilishi lozim bo'lgan «Oltin qoida»lar yozilgan plakat doskaga ilib qo'yiladi:

1 .Mavzudan uzoq ketma.

2. Avval o'yla, keyin so'yla.

3. Oz va soz so'zla.

4. O'zgalar fikrini hurmat qil, tingla!


I. Ommaviy tarzda ishlashda qulay hisoblangan «Klaster» metodi yordamida o'quvchi- larning Vatan haqidagi tushun- chalari umumlashtiriladi.

Bu metod o'quvchilarni mavzuni aniq va erkin bayon qilishiga, ketma-ketlikda fikrlashiga yordam beradi.

Shuningdek, fikrlarini jadal, qisqa va lo'nda ifoda etishda katta ahamiyat kasb etadi.

II. «Vatan tuyg'usi va milliy g'urur bilan yashagan bobolar» matni o'qib, tushuntiriladi:

Vatan haqida gap ketganda «Vatan — bu sening kindik qoning to'kilgan tuproq», «Sening ota- onang, avlod-ajdoding tug'ilib, o'sgan joy», deyiladi. Shu sababdan biz ona yurt tuprog'ini, uning go'zal bog'larini, baland tog'larini, jo'shqin oqayotgan daryolarini, paxtazor va bug'doyzorlarini, qir-u adirlarini, qushlarini, qo'yingki, jamiki boyliklarini yurakdan sevamiz. Natijada mana shu tuyg'u orqali qalbimizda Vatan tuyg'usi shakllanadi.




Yurtimiz juda ko'p vatanparvarlar, sarkarda va qahramonlarni tarbiyalagan. Amir Temur, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Pahlavon Mahmud kabi vatanparvarlar jasorati bizga o'rnakdir. Siz Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Burhoniddin Marg'iloniy, Ahmad Farg'oniy, Xorazmiy kabi buyuk bobolarimiz haqida ko'p eshitgansiz. Ular o'zlariga tug'ilib o'sgan joy nomlarini taxallus qilib olganlar. Bu ulug' allomalarimizning o'z vatanini nechog'lik sevganligi, u bilan faxrlanganligidan dalolatdir.

Bizga ma'lumki, xalqimizning Behbudiy, Munawarqori, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Elbek, Usmon Nosir kabi buyuk farzandlari Vatanimiz ozodligi,

erki yo'lida kurashib, qurbon bo'lganlar. Ularning pok nomlari mustaqillik tufayli oqlandi. O'zbek xalqi bu vatandoshlarini hech qachon unutmaydi.

III. «Venn diagrammasi» metodi asosida o'quvchilarning matn yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash («Venn diagrammasi» 2 ta yoki 3 ta halqaning o'zaro kesishuvidan hosil bo'ladi. Biz 2 halqa kesishuvi misolida berib o'tamiz).

Dastlab sinf yozuv taxtasi teng 4ga bo'linib, quyidagi chizma chiziladi:



Shunga muvofiq tarzda sinf o'quvchilari ham 4 guruhga ajratib olinib, har bir guruh nomlanadi. Guruhlarga tarqatma materiallar asosida quyidagicha topshiriqlar beriladi:

1- guruh:

- 1) Siz Vatan ravnaqiga qanday hissa qo'sha olishingiz mumkin?
- 2) Vatanparvarlik xislatiga ega insonlarda qanday sifatlar tarkib topadi?

2-guruh:

- 1) Millat ravnaqiga hissa qo'shgan qaysi zamondoshlarimizni bilasiz?
- 2) Sizningcha, Vatan tuyg'usi nima?

3-guruh:

- 1) Vatan deganda ko'z oldingizga nimalar keladi?
- 2) «EI qudrati chin qudrat, Vatan tuprog'i qimmat» maqolini izohlab bering.

4-guruh:

1) Matndan xulosa chiqargan holda «vatanparvarlik» va «vatangado» tushunchalarini izohlang.

2) O'zingiz yashayotgan mahallani ta'riflab bering.

Guruhlar tomonidan topshiriqlar bajarib bo'lingach, har bir guruhdan liderlar tanlanadi. Liderlar o'quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib,

yozuv taxtasida aks ettirilgan diagrammani to'ldiradilar (diagramma bo'yab qo'yishi ham mumkin). Qaysi guruh birinchi bo'lib topshiriqni bajarib, yozuv taxtasida berilgan o'z diagrammalarini to'ldirsalar, o'sha guruh munosib rag'batlantiriladi.

IV. «Qizil va yashil kartochkalar bilan ishlash» metodi asosida o'quvchilar bilimni baholash.

Izoh. Ushbu metodda yashil kartochka «tasdiq» (ha), qizil kartochka esa «inkor» (yo'q) ma'nosini bildiradi. Savollar mavzu mazmunidan kelib chiqib, «ha» va «yo'q» javoblariga asoslangan holda tuziladi. O'qituvchi savollarni o'qiganda, baholanayotgan o'quvchilar savol mazmuniga qarab kerakli kartochkani ko'rsatadilar.

Savollar:

- 1.«Vatan» tushunchasi «Ona» so'ziga tenglashtiriladimi? (Ha).
- 2.Zahiriddin Muhammad Boburning tug'ilgan joyi Andijonmi? (Ha).
- 3.Yurtimizda ko'plab vatanparvarlar tug'ilib o'sganmi? (Ha).
- 4.«O'zga yurtda shoh bo'lguncha, o'z yurtingda gado b◻l» bu topishmoqmi? (Yo'q).
- 5.Vatanimiz poytaxti Tosh- kentmi? (Ha).
- 6.Yaxshi o'qimaslik, har bir narsani asrab-avaylamaslik Vatan ravnaqiga hissa qo'shishlikmi? (Yo'q).
- 7.Vatanimizda ko'plab qadimiy, tarixiy yodgorliklar bormi? (Ha).
- 8.O'zbekiston mustaqil davlatmi? (Ha).

V. Uyga vazifa. Abdulla Avloniyning «Vatan» she'rini yod olish, vatanparvarlik, oila, yurt haqidagi maqollardan topib, daftarga qayd etish.

Yosh avloda kichik yoshdan vatani bilan g'ururlanish xalq qahramonlari, milliy urf-odatlari, mutaffakkirlarimiz bilan faxrlanish tuyg'usini «Vatan tuyg'usi» mavzusi orqali shakllantirish.

Ushbu dars ishlanmasi odobnoma darslari orqali o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishda, yuqorida keltirilgan interfaol metodlar o'qituvchilarga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR

Milliy g`urur — iftixor, xalqning qudratini, orzu-intilishlarini mujassamlashtiradigan ulug` kuch. G`urur — xalqning, el-yurtning ulug`vorligi bilan ajralib turadi. G`urur xalqni xalq, millatni millat qilib ko`rsatadi. Bugungi o`zbek xalqining g`ururi butun dunyo bo`ylab qad ko`tarilayotgan bir paytda, jahon xalqlari orasida O`zbekiston eng rivojlangan mamlakatlar qatorida o`rin olayotgani qo`llanmaning asosiy mazmunini tashkil etadi. Xalqimiz milliy g`urur uchun belini bog`lab, do`ppisini bostirib, boshini baland ko`tarib yurish uchun zamin yaratildi.

Demak, milliy g`ururga ega bo`lgan kishi o`z qishlog`i, o`z tumani va viloyatini jonu dilidan ortiq sevadi, uning ravnaqi uchun xizmat qiladi. Bu g`urur ularning tarbiyasiga, madaniyati va ma'naviyatiga chuqur ta'sir etib, ajdodlar qo`li bilan yaratilgan boy modtsiy va ma'naviy merosni ko`z qorachig`iday asrash uchun faxrlanish imkonini beradi. Uning mazmunida ulug`vorlik, mag`rurlik kabi sifatlar o`z aksini topgan.

G`urur deganda, ko`z o`ngimizda haq va haqiqat gavdalanadi. Bobolarimizning hammasi g`ururli zotlar bo`lganlar. Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Amir Temur, Ulug`bek, Alisher Navoiy, Boburlar o`z g`ururlarini minordek tutishgan. Shunday ekan, bugungi yoshlarimiz bobolari merosiga sodiq qolib, ular yaratgan odob-axloq me'yorlariga sodiqbo`lishi lozim. G`ururli bo`lish, birinchi navbatda, xalq manfaatini yoqlash, elga foyda keltirish. Xalqimiz o`z hayoti, turmush tarzida eng olijanob g`oyalarni mujassam etgan axloq-odob qoidalariga, ma'naviy qadriyatlarga tayanib kelgan. Shunday ilg`or g`oyalar tufayli elimizda adolat, rostgo`ylik, halollik, pokizalik, birovning haqqiga xiyonat qilmaslik, nogironlarga mehrlilik bo`lish, odamiylik, qardoshlik, vatanparvarlik, shirinsuxanlik va boshqa insoniy fazilatlar rivoj topgan.

O`zbek xalqining g`ururini ifodalovchi bir qancha urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar, odatlar, udumlar, an'analar mavjud. Jumladan, o`zbek xonadonlarida ota nomi mag`rur va ulug` shaxs sifatida e'tirof etiladi. Uning oldida gunoh qilish,

Tangri oldida gunohkor bo`lish bilan barobar. Har bir yigit-qiz buni o`z g`ururi, deb bilishi lozim.

Ayniqsa, yosh farzandlarimizning o`z yurtiga mehr-muhabbatli bo`lishi, uning mustaqilligini mustahkamlashi, Vatanimiz shon-shuhratini dunyo miqyosiga olib chiqish ruhida tarbiyalash har birimizning muqaddas burchimiz. Bunday ezgu maqsadlarni bajarishda har bir O`zbekiston fuqarosi g`urur va iftixor bilan yashaydi va uning me'yoriga amal qiladi.

Har bir millat, mamlakat, jamoaning muhim yutuqlaridan biri, ushbu birikma-birlik vakilining o`ziga xos milliy g`urur, milliy g`ururga ega bo`lishi hisoblanadi. Shu ma`noda O`zbekiston Prezidenti I. A. Karimov: “O`z millati, mamlakati bilan faxirlanadigan inson juda ko`p narsalarga qodirdir. Bu esa oilaning ham, vatanning ham shon-shuhratini oshiradi”. Ayni paytda “Buyuk davlatning odamlari, eng avvalo, erkin va ozod bo`lishi doimo jo`sh urib turishi, vatan tiyg`usi har birining yurak-yuragidan joy olishi kerak”, “Tomirida milliy g`urur, vatan ishqı jo`sh urmagan odamdan jasorat kutib bo`lmaydi. Biz shunday muhit yaratishimiz kerakki, yurtimizning har bir fuqaro qiyofasida ozod va obod vatandan faxrlanish hissi ko`zimizni yashnatib tursin” degan edi.

Ayni paytda I. A. Karimov milliy g`urur, milliy g`ururni me`yordan oshirib yubormaslik to`g`risida ham to`xtalib shunday degan edi:

“Milliy g`urur haqida gapirganda uni ulug`laganda hech kim o`z millatini boshqalardan ustun qo`ymasligi kerak. Dunyoda katta yoki kichik millat yo`q, balki har bir millatning o`z g`ururi bor. Uni esa hech kamsitishga haqqi yo`q” degan edi.

Ma`lumki keyingi yillarda ayrim yevropa mamlakatlaridan yurtimizga nisbatan mafkuraviy xurujlar uyushtirilmoqda. I. A. Karimov bu jarayonni ko`zda tutib, shunday degan edi: “Agar inson o`z yurtidan g`ururlanmasa, yurtini yomon ko`zlardan asrash uchun o`zini ayasa bunda unday jamiyatning kelajagi yo`q”.

Har bir millat, jamiyatning milliy g`urur, milliy g`ururlaridan biri davlat ramzlari bilan bog`langandir. Shu ma`noda I. A. Karimov: “Davlatimiz ramzlari bayroq, gerb, madhiya O`zbekiston xalqlarining shon-sharafi, g`ururi, tarixiy

xotirasi va intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi. Mana shu ramzlarni e'zozlash-o'zining adr-qimmatini, o'z mamlakatiga va shaxsan o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash demakdir”,

“Milliy ongi, milliy g'ururi baland millatni yengib bo'lmaydi” degan edi.

O'quvchi yoshlarda milliy g'urur, milliy g'urur, millat, jamiyat hayotida alohida o'ringa egadir. Bitiruv malakaviy ishimizni bayon etish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik.

Birinchidan, har qanday jamiyat har qanday fuqaro ma'lum mafkurasiz mavjud bo'la olmaydi. Milliy g'oyaning esa, muhim,dolzarb masalalaridan biri-milliy g'urur va milliy g'ururdir;

Ikkinchidan, milliy g'urur har bir millat, jamiyatga xos bo'lib, uning tuzilishi xilma-xil ko'rinishlarga egadir;

Uchinchidan, insonni faxr va g'urursiz tasavvur qilish mumkin emas. G'ururi kuchli inson shu jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun xizmat qiladi;

To'rtinchidan, tabiiy milliy g'urur, milliy g'urur ma'naviy-ma'rifiy ishlarning muhim qismini tashkil qiladi;

Beshinchidan, o'quvchi-yoshlarda milliy g'urur, milliy g'ururni shakllantirish davr va zamon talabidir.

Mazkur xulosalar va o'tkazgan tahlilimiz asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Boshlang'ich sinf “Odobnoma” darslarida milliy gururni shakllantirishni yo'lga qo'yish va ta'lim-tarbiya samardorligini oshirishda reja va dasturlar ishlab chiqish.
2. Boshlang'ich “Odobnoma” darslarida milliy g'ururni shakllantirish usullarini, shakl va vositalarini ishlab chiqish.
3. Boshlang'ich sinf “Odobnoma” darslarida o'quvchilardamilliy g'urur tuyg'usini shaklntirishda Sharq mutafakkirlarining ma'naviy merosidan foydalanish;

4. Yosh avlodda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishda "Odobnoma" darslariga oid didaktik va electron materiallar ko'rgazmalar va test savollari yaratish.
5. Boshlang'ich sinflarda "Odobnoma" darslari asosida o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish usullaridan unumli foydalanish uslublarini yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». - T.: O'zbekiston, 1997-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. – Toshkent, 1997-yil
3. Karimov I.A. “Ozod va obod Vatan, erkin va farovan hayot pirovard maqsadimiz”. – T.: O'zbekiston. 2000. 418-b.
4. Karimov I.A. O'zbekiston “milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura”.- T.: O'zbekiston. 1993. 218-219-b.
5. Karimov I.A. “Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman”.II Fidokor gazetasi. 2000. 8-iyun.
6. Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q”. T.: O'zbekiston. T. 7. 1997. 140-b.
7. Karimov I.A. “Xavsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida”. T.: O'zbekiston. T.6. 1998. 125-b.
8. Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch”.
9. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi”. T.: sharq. 1999.
10. Hakimov N. “Milliy g'urur va madaniy saviya” j. Muloqot. 2000.N.4. 15-18-b.
11. Hasanboyeva O. va boshqalar. “Odobnoma” darslik, Toshkent, Respublika ta'lim markazi, 1999 y. 136-138-betlar.
12. Hasanboyeva O. va boshqalar. “Odobnoma o'qitish metodikasi” 1-4 sinflar. Toshkent. “Bilim” nashriyoti
13. Jo'rayev N. “Agar ogohsen”... T.: “Yozuvchi”. 1998.26-b.
14. Jo'rayev N. “Tarix falsafasi”. –T.: “Ma'naviyat”. 1998. 22-b.
15. Jo'rayev R. “Jaholatga qarshi ma'rifat”. // Xalq ta'limi jurnali. 2004. N.3. 9-13-b.

16. Jo'rayev Narzulla "Xalqaro terrorizm va mintaqaviy majoralar". T.: "Ma'naviyat". 2001. 24-b.
17. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: O'zbekiston. 2000. 10-b.
18. Mahmudov Yu.G'. "Milliy g'urur – ma'naviy komillik mezoni", Toshkent "Extremum press" nashriyoti, 2011 y.
19. Oripov A. "Ehtiyoj farzandi".-T.: Yosh gvardiya. 1997. 221-b.
20. Ochil safa. "Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. –T.: O'qituvchi. 1997. 255-b.
21. Radjaboyev A. "Vatan himoyasi muqaddas burch". // "Uzliksiz ta'lim" jurnali. 2004. N.2.
22. Salimov S. Davranov Z. "Jamiyat, shaxs va ma'naviyat" –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2002. 32-b.
23. Tulenov J. G'afurov Z. "Mustaqillik va milliy tiklanish" T.: O'zbekiston. 1996. 243-b.
24. Yo'ldoshev A. "Milliy g'urur tuyg'usi" j. "Muloqot" 1998. N.2. 56-b.
25. G'aniyev D. G'afurov Z. "Inson baxt uchun tug'uladi". –T.: SHarq. 1998. 31-b.
26. SHaripov SH. S. "Umumiy o'rta ta'limda milliy mafkura va mehnat ta'limining uyg'unligi". // "Uzliksiz ta'lim jurnali. 2004. N.2. 86-90-b.
27. Xudoyqulov X.J. "O'zbekning g'ururi – uning odobida", Toshkent "Aloqachi" nashriyoti, 2007 yil
28. Xudoyqulov X.J. "Odob-axloq va tarbiya durdonalari", Toshkent, "DT-nashr" MCHJ bosmaonasi 2010 y.
29. Qurbonov M. "Odobnoma" Toshkent, darslik, "O'qituvchi" nashriyoti. 1995 y.
30. WWW pedagog uz.
31. WWW ziyonet uz.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-6
I. BOB. O'QUVCHILARDA MILLIY G'URUR TUYG'USINI SHAKL-LANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI.	
I.1. Milliy g'urur tushunchasining mazmun va mohiyati.	7-20
I.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Odobnoma" darslari orqali milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish imkoniyatlari.	21-25
II. BOB BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA "ODOBNOMA" DARSLARI ORQALI MILLIY G'URUR TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH USULLARI.	
II.1. "Odobnoma" fani orqali o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish usullari.	26-39
II.2. 3-sinf o'quvchilarida "Odobnoma" darslari orqali milliy g'ururni shakllantirish vositalari.	39-55
UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR	56-60
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	61